ISSN 2181-9335



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY



2022, №2

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021 yil 30 sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA
CONTENTS

ILM-FAN VA INNOVATSIYA – JAMIYAT TARAQQIYOTI ASOSI
SCIENCE AND INNOVATION –BASIS OF DEVELOPMENT OF SOCIETY

DJURAYEV R.M.
Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini yangicha yondashuvlar orqali rivojlantirish - davr talabi..... **5**

RUSTAMBAYEV M.X.
Huquqshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlarining innovatsion jozibadorligini oshirishning dolzarb muammolari..... **7**

MUXAMMADIYEV A.A.
Yuridik etiketning turlari va o‘ziga xos xususiyati..... **14**

USMONOV M.B.
Innovatsion hamkorlik va ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbig‘i samaradorligi muammolari..... **18**

ТУРСУНОВА М.У.
Международный мониторинг и оценка качества образования..... **22**

AXMEDOV D.A.
Yo‘llarda inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash muammolari..... **28**

RASULMETOV M.N., KAZIMOV S.S.
Oliy harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilishning maqsad va vazifalari.... **33**

XODIYEV R.X.

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini o‘qitish va tarbiyalash jarayonini optimizatsiyalashtirish..... **38**

RO‘ZIYEV R.D., MUXAMMADIYEV A.A.

Huquq sohasidagi dissertatsiyalarning sifati va samaradorligini oshirish – davr talabi..... **44**

ALIMOVA G.A.

Conceptual and terminological analysis of recreational and tourist activities..... **50**

МУРАКАЕВА З.И., МУРАКАЕВ И.И.

Дистанционное образование в Узбекистане: вчера и сегодня..... **60**

NURMATOV M.M., ELOV A.A.

Ekstremizm va terrorizm muammolarini ilmiy tadqiq etishda ilg‘or xorijiy tajribaning ayrim masalalari... **64**

URMONOV J.J.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari..... **69**

NASRIDDINOV D. K.

Fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlaridan foydalanish..... **79**

MIRZAJONOV G‘.T., USMANOVA X.U.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursant va tinglovchilarining ta’lim olishida mustaqil ta’limning o‘rni va ahamiyati..... **85**

ГРИБ Д.В.

Использование информационных технологий, как способ совершения хищений по законадательству Республики Беларусь и Российской Федерации..... **92**

ACHILOV F.B.

Obyektlarni qo‘riqlash tizimidagi muhandislik-texnik vositalarini nazorat qilish va baholash bo‘yicha metodikalarning eksperimantal ko‘rsatkichlari..... **96**

ASHUROV R.N.

Yetakchi davlatlar armiyalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimining ilg‘or tajribasi va milliy amaliyot masalalari (AQSh va Buyuk Britaniya misolida)..... **104**

KARIMOV N.M.

Ziddiyatli vaziyatlar uchun jangovar taktikalar ishlab chiqishda Lanchester kvadratik qonunining ahamiyati..... **110**

IKRAMOV SH.R.

Bola huquqi ta’minlanishida oilaviy bolalar uyining o‘rni: muammo va yechimlar..... **119**

IKANOV A.A.

Suitsidal terrorizmga qarshi kurashishda zamonaviy usullardan foydalanish ("profayling texnologiyasi" misolida)..... **126**

РАШИДОВА М.Х.

Применение технологии скаффолдинг для повышения уровня владения английским языком курсантов высших военных учебных заведений **130**

BURXANOV T.M.

Bo'lajak ofitserlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari..... **136**

БУЛЫЧЁВА М.Ф.

Образование на родине Роберта Бёрнса (Эдинбургский университет)..... **141**

NAMOZOVA D.B.

Developing cadets' English language phonetic competence via modern pedagogical technologies... **147**

JUMAYEV S.Q.

Antipirenlar samaradorligini tadqiq qilish..... **151**

BAXRIDDINOV A.O.

Profayling metodidan foydalanishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatolar..... **159**

САРИМСОКОВА М.Р.

К проблеме обстоятельства времени и места в китайском языке в лингвистических исследованиях **164**

MUSAYEVA Sh.I.

Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini chet tili o'qitish orqali rivojlantirish..... **170**

XO'JAMBERDIYEV F.K., QILICHEV I.Y.

Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari..... **176**

БОЗОРОВ У.Т., ҲАЙДАРОВА Ш.А.

О зарубежном опыте по привлечению иностранных преподавателей (в сфере подготовки специалистов обеспечения безопасности выборов)..... **181**

OTAJONOV R.N.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya: mohiyati, mazmuni va xususiyatlari..... **189**

BEYSENOV U.B.

Kursantlarni kasbiy ongini shakllantirishda kasbiy ma'lumotlar asosiy manba sifatida..... **195**

ALIMARDONOVA M.B.

Ways to correctly evaluate graduate students' writing skills **199**

ATANIYAZOV J.K.

Jinoiy qilmish bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda jinoyat-protsessual qonunchilikning rahbariy prinsiplariga mosligi..... **206**

ABDULLAYEV A.I.

O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida amaliy gimnastika mashg'ulotlarining tashkiliy-metodologik xususiyatlari **213**

ERGASHEV A.M., JAMOLIDDINOV S.J.

Zamonasining yetuk namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi..... **218**

ALOYEV U.M.

Qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi ta'sirini baholashda koreya tajribasining o'ziga xos jihatlari... **222**

ISAMUTDINOV R.R.

"Xavfsiz hudud"ni ta'minlash bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari tajribasi..... **225**

KURBANOVA M.A.

Use of interactive methods and their classification..... **230**

ISOQOVA M.Z.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda kombinatorika masalalarining o'rni..... **234**

JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATINI YANGICHA YONDASHUVLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH - DAVR TALABI

Mamlakatimizda xalq farovonligini ta'minlashga qarata olib borilgan keng ko'lamli demokratik islohotlar natijasida hayotimiz sifati va fuqarolarimizning turmush darajasi o'sdi, mamlakatimiz qiyofasi tubdan o'zgardi va respublikamizning barqaror iqtisodiy o'sishiga erishildi. Qolaversa, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlarning Oliy bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Vatan tinchligi va osoyishtaligi, yurt obodligi va xalq farovonligini ta'minlash bo'yicha tub islohotlar amalga oshirilganligi ushbu vaqtni o'ziga xos tarixiy iz qoldirgan davr deyishga imkon beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu davrda mamlakatimizda huquq-tartibotni ta'minlash sohasida, ayniqsa uning muhim qismi hisoblangan jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida ham keng ko'lamli va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlarning asosiy maqsadi – jamiyatning huquqbuzarlik va jinoiy tahdidlardan ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan tizimni shakllantirish, shaxs huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilish sifatida belgilanganligi natijasida bugungi kunga kelib o'z samarasini bermoqda.

O'tgan qisqa davr mobaynida huquqni muhofaza qiluvchi organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashga doir faoliyatini, takomillashtirish yuzasidan amalga oshirib kelinayotgan islohotlar natijasida Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning barcha sohaviy xizmatlari va ularning joylardagi quyi tuzilmalarining faoliyati zamon talablari asosida takomillashtirildi, ularning tashkiliy tuzilishi va asosiy vazifalari aniq belgilab berildi, sodir etiladigan har qanday jinoyat va huquqbuzarliklarga javob qaytarish bo'yicha maxsus bo'linmalarning tezkorligi va harakatchanligi oshirildi;

ikkinchidan, respublikamizning barcha hududlarida, jumladan eng chekka qishloq, ovul va mahallalarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlarining o'zaro hamkorligi takomillashtirildi;

uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan javobgarlik hududlari aniq taqsimlandi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ular negizidagi jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligi yanada mustahkamlandi, bu esa jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalarining xalqqa yanada yaqinlashtirilishiga xizmat qildi;

to'rtinchidan, ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan patrul-post xizmati saf bo'linmalarining faoliyati takomillashtirilib, ularda xizmat qiluvchi xodimlarning mas'uliyati oshirildi;

beshinchidan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmati, yo'l harakati xavfsizligi xizmati, qo'riqlash xizmati va boshqa sohaviy xizmatlar uchun malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularni joy-joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi tubdan yangilandi va takomillashtirildi;

oltinchidan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashdan iborat bo'lgan tarkibiy tuzilmalar va saf bo'linmalarining moddiy-texnikaviy bazasi takomillashtirildi, ular zamonaviy avtotransport, kompyuter va aloqa vositalari, xizmat qurollari bilan ta'minlandi; va nihoyat

yettinchidan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi, tegishli qonunlar, nizom, yo'riqnoma va buyruqlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi.

Umuman olganda ushbu sohada bugungi kunda ham izchil va tizimli ravishda davom etayotgan islohotlar, bir tomondan, davlat boshqaruvi sohasida jamoat xavfsizligini

ta'minlovchi organlarining roli va mavqeining yuksalishiga, fuqarolarimizning davlat organlariga nisbatan ishonchi va hurmati oshishiga, ikkinchi tomondan, fuqarolar osoyishtaligi, huquq va erkinliklarini samarali ta'minlashga xizmat qildi.

Ta'kidlash joizki, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, uning jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdagi ahamiyati, bu borada amalga oshirilayotgan bugungi kundagi ishlar va ularning istiqbollari haqida so'z yuritish, fikr va mulohazalar almashish hamda ushbu sohada uchrayotgan muammolarni bartaraf qilishga va mazkur faoliyatning yanada takomillashtirilishiga xizmat qiladi.

O'ylaymizki, mazkur nashrda beriladigan taklif va tavsiyalar jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, fuqarolar osoyishtaligi, huquq va erkinliklarini ta'minlash samaradorligini yanada oshirilishiga xizmat qiladi.

Djurayev Rustam Mirzayevich,
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, general-mayor

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

HUQUQSHUNOSLIKKA OID ILMIY TADQIQOT ISHLARINING INNOVATSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, bugungi kunda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, sud-huquq tizimini isloh qilish, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, asarlari va nutqlarida qo‘yilgan vazifalarning ijrosini ta’minlash va amaliyotga tatbiq etish yuridik fanlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining innovatsion samaradorligini oshirish, yetuk malakali yuridik kadrlar tayyorlashni sifat tomonga takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan prezidentlikning dastlabki kunlaridan boshlab har bir sohaga ilmiy-amaliy yondashuvning zarurligi, bu borada jamiyatning tayanch qatlami bo‘lgan olimlar va ziyolilarning faolligini rag‘batlantirish, fanning barcha sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini yuqori saviyada olib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, olimlarni va yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash sari izchil va tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va ilmiy tadqiqot ishlariga qiziqishning chinakamiga oshganligi, avvalo, sohaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilganligidadir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash to‘g‘risida”gi qarori ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ilm bo‘lmagan joyda bilim bo‘lmaydi, ilm yo‘q joyda ta’lim bo‘lmaydi”, degan g‘oyalari asosida mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan chuqur tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilib, dunyo reytingida e’tirof sari faol harakatlar boshlandi. 2030 yilgacha oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi asosida eng nufuzli oliy ta’lim muassasalari reytingiga kirish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi.

Ma’lumki, har bir jamiyatning ta’lim tizimida yuridik mutaxassislik alohida o‘rinda turib, u mamlakatni muvaffaqiyatli taraqqiyotga eltuvchi kuch, uning rivojlanish darajasi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, mamlakatimizda huquqshunoslik fanlari mustaqillik yillarida sezilarli darajada rivojlanmoqda va ma’lum yutuqlarga erishmoqda. Huquqning yangi sohalari (masalan, xalqaro xususiy huquq, korporativ huquq, bojxona huquqi, bank huquqi, tadbirkorlik huquqi, ekologiya huquqi va h.k.) vujudga kelib, ayni vaqtda, davlat va huquq tarixi, nazariyasi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, konstitutsiyaviy huquq fanlari bo‘yicha olimlar salmoqli natijalarga
erishdilar. Buning natijasi sifatida qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, bir qator monografiyalar, risolalar, kodeks va qonunlarga sharhlar tayyorlandi va chop etildi.

Ta’kidlash o‘rinliki, mustaqillik yillarida huquqshunos mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari, fakultetlar ham son jihatdan ko‘paydi. Muqaddam asosan sobiq ToshDUning yuridik

fakulteti, qisman SamDU va Qoraqalpoq davlat universitetlarining yuridik fakultetlarida yuridik sohada ilmiy tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu sohada boshqa tarmoqlarda bo'lgani kabi o'ziga xos raqobat muhiti ham vujudga keldi. Hozirgi vaqtda respublikamizda yuridik fanlar bo'yicha tadqiqotlar o'nlab oliy ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalarda amalga oshirilmoqda. Bular ichida TDYU, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, Sudyalar oliy maktabi, IIV Akademiyasi, Davlat boshqaruvi Akademiyasi, Davlat va huquq instituti, Samarqand davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Namangan davlat universitetining Huquqshunoslik fakultetlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'z milliy davlatchiligini tiklashga, uning huquqiy tizimini shakllantirish, shu asosda huquqiy davlat barpo etish yo'lidan bormoqda. O'zbek milliy davlatchiligining asoslari o'tmish tarixiy tajribamizda, davlat faoliyatimizda, o'sha davrda ilgari surilgan siyosiy-huquqiy g'oyalarda mujassamdir. Davlatchilik tajribamizni, uning g'oyaviy, siyosiy, huquqiy asoslarini ilmiy tadqiq qilish, uni har tomonlama o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan strategik vazifaga aylandi. Fuqarolar huquqiy ongini, madaniyatini oshirishda o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatining rivojlanishiga xizmat qiladigan g'oyalar shakllanishida, siyosiy-huquqiy g'oyalarga bo'lgan ehtiyoj o'sib bormoqda. Shu munosabat bilan buyuk alloma, mutafakkirlarning davlat va huquq, qonun, qonunchilikni takomillashtirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish haqidagi ta'limotini o'rganish, tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi sohalarida muhim o'zgarishlarni amalga oshirdi. Ushbu soha qonunchiligiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Butun ijtimoiy sohani erkinlashtirish jarayonida jinoiy jazoni ham liberallashtirish ishlari amalga oshirildi, jazo turlariga o'zgartirishlar kiritildi, yarashtiruv instituti joriy qilindi, sudlarni ixtisoslashtirishga erishildi, advokatlar maqomini jahon standartlari darajasiga ko'tarish siyosati yurgazildi. Bu kabi yangi yo'nalishlar bugungi kunda jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi fanlari oldiga shu muammolar xususida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning ilmiy-nazariy tushunchalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Istiqbolda jinoyat huquqi fani oldida Jinoyat qonuni normalarini liberallashtirish; jinoyat huquqiy normalar raqobatini kamaytirish maqsadida bir-birini takrorlaydigan yoki ziddiyatli normalarni muntazam o'rganish va ularni ilmiy tahlil qilish; retsidiv jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarning amalda qo'llanishini o'rganish; jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy majburlovning yangi turlarini kiritishni o'rganish va ularni ilmiy asoslash; javobgarlikni differensiatsiyalashtirish va individuallashtirish maqsadida jinoiy jazo tizimini qayta ko'rib chiqish, jazo turlari sonini ko'paytirish masalasini ilmiy o'rganish vazifasini qo'ymoqda.

Ma'lumki, istiqlolning dastlabki yillaridanoq davlat hokimiyatini tashkil etish, davlat boshqaruvini yo'lga qo'yish, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimini shakllantirish bo'yicha jahondagi ilg'or tajribani hamda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olib shakllantirish g'oyasi ilgari surildi. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlantirildi, pirovardida, kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari ildam qadamlar tashlandi. Hokimiyatlar taqsimlanishining ta'minlanishi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning bir palatali tizimdan ikki palatali professional parlamentga aylanishi, odilona saylov tizimini yaratish va ularning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish amalga oshirildi.

Iqtisodiy tizimni asoslantirish bo'yicha yuridik fanlarning rivojlanishiga oid quyidagi konseptual g'oyalar belgilandi: bozor munosabatlari tizimini bosqichma-bosqich

joriy etish, xususiy mulkni iqtisodiyotda hukmronligini ta'minlash, yerga va boshqa tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik masalalarini oqilona hal etish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, shartnomalar erkinligi va intizomini har tomonlama mustahkamlash va h.k.

Amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, yurtimizda huquqiy fanlar uzluksiz rivojlanib, so'nggi yillarda huquqshunoslik yo'nalishida ilmiy izlanishlar hamda unga mutanosib ravishda bu sohada ilmiy ish olib borish istagidagi yosh huquqshunoslar soni ham uzluksiz oshib bormoqda. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakatimizda mustaqillik yillarida Prezident boshqaruvi, qonun ijodkorligi, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish, bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, xo'jalik yuritish va mulkdorlik huquqini shakllantirish, sud-huquq tizimini takomillashtirish, sudlarni ixtisoslashtirish, jazo ti-zimini takomillashtirish va boshqa muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy hal etish yo'llari tahlil etilib, ularni amaliyotga qo'llash uchun tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga taklif, mulohazalar berildi, matbuotda maqolalar chop etildi.

Yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha doktorlik va yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan ixtisoslashgan kengashlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning qaroriga ko'ra huquq sohalari bo'yicha ixtisoslashtirilgandan so'ng dissertatsiyalarning sifatli himoya qilinishiga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ushbu ixtisoslashgan kengashlar huzurida seminarlar o'tkazuvchi kengashlarning tashkil etilishi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori va doktorlik dissertatsiyalarini tegishli mutaxassislar ishtirokida mu-kammal muhokama qilish va dissertatsiyalarni sifatli tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida so'nggi 5 yil ichida davlat qurilishi va boshqaruvi, sud-huquq islohotlari, bozor iqtisodiyotining huquqiy muammolariga bag'ishlangan dolzarb mavzularda ilmiy monografiyalar tayyorlashga alohida e'tibor berildi. Masalan, 2017-2022 yillarda 50 ta ilmiy monografiyalar chop etildi. Shu bilan birga ilmiy va ommabop risolalarni chop etish ham institut olimlarining diqqat markazida bo'ldi. 2017-2022 yillarda 163 ta risola nashrdan chiqdi.

Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish sohasida ham o'ta dolzarb masalalar huquqshunos olimlarning tadqiqotlarini kutmoqda. Jumladan, xususiy mulk huquqining mazmuni va uning kafolatlarini yanada kuchaytirish, kichik biznes subyektlarining huquq va erkinliklarini kengaytirish, oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asoslarini yaratish, bozorda insofli raqobat muhitini vujudga keltirish, korporativ boshqarish mexanizmini keng joriy etish masalalari sivilistik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lmog'i zarur.

Mamlakatimizda ekologik muhitni sog'lomlashtirish, soha qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish, bu borada fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ekologik nazoratni amaliyotga joriy etishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham izchil davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Milliy taraqqiyotimizning bugungi kun yangi islohotlar bosqichida yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida inson, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning markazida turuvchi eng ustuvor, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, "Yangi O'zbekiston taraq-qiyot strategiyasi"da alohida o'rin egallaydigan asosiy masalaga aylandi.

Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz" mavzusidagi nutqida ta'kidlaganidek, "...Asosiy qomusimiz kafili sifatida "Inson qadri uchun" degan

ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo'lib qoladi" [1]. Darhaqiqat, yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda inson huquqini himoya qilish sohasida olib borilayotgan islohotlar o'z izchilligi, mantiqiyligi va yuksalib borayotganlik xususiyati bilan ajralib turibdi.

Prezidentimizning ma'ruzasida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalar sifatida, birinchidan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni yangi pog'onaga ko'tarish, bu borada, millati, tili va dinidan qat'i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi, har bir hudud, soha va tarmoq faoliyatiga ularda fuqarolarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlari qanday ta'minlanayotganiga qarab baho berish, rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi kerakligi, ikkinchidan, adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng asosiy va zarur sharti bo'lishi lozimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da turli toifa insonlarning huquqini ta'minlash masalasiga alohida urg'u berilishiga ma'ruzada to'xtalib o'tildi. Xususan, jamiyatimizda mehr-oqibat, muruvvat va saxovat tamoyillarini yanada mustahkamlash maqsadida nogironligi bo'lgan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi, nogironligi bo'lgan fuqarolarni ish o'rni va daromad manbai bilan ta'minlash uchun ularga aniq kvotalar belgilash bo'yicha amaldagi qonunchiligimizga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Milliy dastur qabul qilinadi. Ushbu "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mantiqiy davomi, uni yanada yuqori bosqichga ko'taruvchi tarixiy hujjat bo'ladi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

So'nggi yillarda sog'liqni saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish sohalarini tubdan isloh qilish natijasi o'laroq, mamlakatimizda o'rtacha umr ko'rish yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 2021 yilda 75 yoshga o'sdi, 2 martadan ortiq onalar va 3 martadan ortiq bolalar o'limi qisqardi. O'zbekiston Respublikasining "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"gi [2], "Ayollarga nisbatan qo'rqitish va kuch ishlatishdan himoya qilish to'g'risida"gi [3] qonunlar qabul qilindi, 160 dan ortiq ayollarni ijtimoiy adaptatsiya qilish markazlari, 200 dan ortiq yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlaydigan innovatsiya maktablari ishga tushirildi.

Kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarimiz, bolalarimiz huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining eng o'tkir masalalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdagi PF-6275-son "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4] farmoni, PQ-5215-son "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [5] va PQ-5216-son "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [6] qarorlari qabul qilinib, ularda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning

mukammal institutsional, tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi, ushbu toifa bolalarga ta'lim-tarbiya, uy-joy, mehnat qilish va sog'lig'ini saqlash bo'yicha imtiyozlar tizimini belgilashga qaratilgan milliy davlatchiligimiz taraqqiyotidagi muhim tarixiy hujjatlar bo'lganligini ta'kidlash o'rinlidir. Davlatimizda yangi tuzilma Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha Vakili instituti tashkil etildi. Ijtimoiy hayotimizdagi bu kabi tub o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini samarali olib borishni taqozo etmoqda.

Shu bilan birga kelgusida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish hamda yetuk malakali kadrlar tayyorlash ishini yanada yaxshilash maqsadida quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz:

Birinchidan, hozirgi kunda huquqshunoslik ilmi yutuqlaridan amaliyotda samarali foydalanish yurisprudensiyaning eng dolzarb muammolari bo'yicha fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Afsuski, hozirda ham fundamental tadqiqotlar olib borish masalasiga yetarli e'tibor berilmayapti, ko'pincha tayyorlangan dissertatsiyalar monografiya sifatida chop etilyapti xolos, ulardagi takliflarni qabul qiladigan, tahlil qiladigan, o'rganadigan tashkilotlarda bunga ehtiyoj sezilmayapti, olimning taklifi ko'pincha qog'ozda qolib ketib, amaliyotga to'liq tatbiq etilmayapti.

Bugungi kunda yurisprudensiyaning barcha sohalari bo'yicha fundamental tadqiqotlar mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy masalalari; bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirishni huquqiy ta'minlash; O'zbekistonda parlamentarizm: rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy yechimlar berish; sud-huquq islohotlarini tashkiliy-huquqiy ta'minlash, liberallashtirishning yangi bosqichi bo'yicha ilmiy konsepsiya ishlab chiqish, jazo tizimi va uni takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilishni xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilishi lozim;

Ikkinchidan, fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish uchun Innovatsiya vazirligi tomonidan tanlov o'tkazish tartibi, bizningcha, takomillashtirilishi lozim. Tanlov olimlar tomonidan tavsiya etilgan mavzular bo'yicha emas, balki bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy islohotlarni yechishga yordam beradigan vazirlik tomonidan tanlangan mavzular bo'yicha o'tkazilishi shart. Mavzular portfelini shakllantirishda Prezident devoni, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud, Respublika Prokuraturasi faol qatnashmog'i lozim. Shundagina uncha dolzarb bo'lmagan, mayda mavzulardan qutulish mumkin. Shu asosda yaratilgan ilmiy monografiyalardagi xulosalarning amaliyotga joriy etish samarasi salmoqli bo'lur edi;

Uchinchidan, MDH doirasida, nafaqat davlatlararo shartnomalarni tatbiq etish, balki xalqaro ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etishimizni nazarda tutgan holda, yuqori malakali huquqshunos olimlarni tayyorlash masalasiga ustuvor yo'nalish sifatida yondashish lozim. Bunda umidli yoshlarni Rossiya Fanlar Akademiyasining Davlat va huquq institutidagi maqsadli aspirantura va doktoranturaga yoki Rossiya Federatsiyasining Qonunchilik va qiyosiy huquqshunoslik institutiga yuborish muhim ahamiyatga ega. Aks holda MDH huquq tizimi, shuningdek, yuridik ta'lim rivojlanishining ustuvor an'analari doirasidan ortda qolish mumkin;

To'rtinchidan, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda keng qo'llashga mavjud yuridik adabiyotlarni nashr etish borasidagi muammolar ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda yuqoridagi ishlarni amalga oshirish budjetdan alohida moliyalashtirilmaganligi va yuridik adabiyotlarni jamoatchilikka yetkazish yetarli tarzda yo'lga qo'yilmaganligini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, yuridik fan yutuqlarini keng aholi o'rtasida targ'ib qilish ishiga to'siq bo'lmoqda, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda qiyinchilik tug'dirmoqda. Hozircha yuridik adabiyotlar asosan homiylar ko'magi va mualliflarning mablag'lari hisobidan chop etilmoqda;

Beshinchidan, mamlakatimizda huquqshunoslikka doir amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarni jahonga olib chiqish, faqat o'z davlatimiz doirasida cheklanib qolmay, xorijiy mamlakatlar bilan faol ilmiy hamkorlik qilish masalasi dolzarb ahamiyat

kasb etmoqda. Shuning uchun mamlakatimizda huquqshunoslik sohasi tadqiqotchilari uchun ilmiy ish olib borish jarayonida rivojlangan G'arb davlatlari – AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya; Rossiya, Ukraina, Qozog'iston kabi MDH va Boltiqbo'yi davlatlari; Koreya, Yaponiya, Malayziya kabi Osiyo davlatlarida rus, ingliz va boshqa xorijiy tillarda ilmiy maqolalarning chop etilishi ilm-fanni yanada rivojlantirish va xalqaro maydonga olib chiqish borasida muhim qadam bo'ladi, deb o'ylaymiz. Bu o'zbek huquqshunoslik fanini xalqaro darajaga ko'tarish, huquqshunos olimlarimizning xalqaro maydonda ilmiy muloqotga kirishishini ta'minlashga, o'z sohasini yanada chuqur o'zlashtirishga va yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Shu o'rinda ilmiy ishlanmalar natijalarini rivojlangan xorij mamlakatlari ilmiy nashrlarida chop etish talabi deyarli barcha mamlakatlar ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirish amaliyotiga xos xususiyatligini ta'kidlash o'rinlidir. Bizning fikrimizcha, mazkur talab quyidagi bir qator muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga xizmat qiladi: birinchidan, mazkur holat eng avvalo milliy ilm-fan sohasini o'z qobig'iga o'ralib, "biqiq" holda rivojlanishini oldini olishga xizmat qiladi; ikkinchidan, milliy ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan ishlanmalarning sifatini tubdan yaxshilashga, tadqiqotlarda nafaqat milliy, balki xorijiy manbalardan keng foydalanilishini ta'minlashga xizmat qiladi; uchinchidan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillardan biri sifatida aynan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarining jahonda umume'tirof etilgan obro'li xorij ilmiy nashrlarida chop etilishi hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari umumjahon reytinglarini belgilovchi agentliklar tomonidan ham aynan shu mezon asosida reyting ballari belgilanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu talabning belgilanishi milliy mualliflar uchun hozirgi zamon talablariga javob beradigan jahon darajasidagi tadqiqotlarni olib borishga undaydi; to'rtinchidan, xorij ilmiy jurnallardagi maqolalarga doir qo'yiladigan talablardan biri qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar, mavzuga oid barcha adabiyotlarni birinchi manbalar asosida ilmiy tahlil etish hisoblanadi. Bu holat mahalliy izlanuvchilarni chet tillarini, xususan ingliz, nemis, fransuz va ispan tillarini mukammal o'rganishga, mavzuga oid birinchi manbalar bilan ishlash malaka va ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, butun dunyo ilmi miqyosida xalqaro mashhur, ko'p havola qilinadigan jurnallarda maqolalar yuqori baholanadi. Shuningdek, jurnal qancha muddatdan beri nashrdan chiqayotganligi, uning jamiyatdagi obro'si va ahamiyati ham unda chop etiladigan maqolalarning ahamiyatini oshiradi. Xususan, ular qatoriga Rossiya Federatsiyasidagi "Государство и право", "Правоведение", "Хозяйство и право", "Вопросы правоведения", "Журнал российского права", "Закон", "Гражданское право", "Уголовный процесс", "Интеллектуальная собственность", AQSh va Yevropadagi "American Jurist" (Юрист Америки), "American Lawyer" (Адвокат Америки), "Journal of Transnational Law & Policy" (Jurnal transnatsionalnogo prava i politiki), "Human Rights Law Journal" (Журнал прав человека), "The European Journal of International Law" (Европейский журнал международного права) kabi jurnallarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ko'rsatilgan jurnallar kabi nashrlarda maqolalar chop etish, mamlakatimiz olimlarining xalqaro talablar bo'yicha maqolalar tayyorlashi, o'zini ustida yanada ham ko'proq ishlash, xalqaro tajriba va chet el mualliflari fikrini o'rganib ular bilan ham munozara va bahsga kirishish talabini vujudga keltirib, bu o'z navbatida tadqiqotchining ilmiy izlanishlarini chuqurlashtiradi, shuningdek o'z maqolalari bilan dunyo miqyosida tanilishiga olib keladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda yuridik fanlar bo'yicha doktorant tadqiqotchilar uchun chet elda 12 ta ilmiy maqola chop etilishini yo'lga qo'yilganligi ayni muddaodir.

Oltinchidan, ilmiy tadqiqotlarni grantlar asosida tashkil etishda o'tkaziladigan tanlovlarning oshkoraligi, ochiqligi, xolisligi ta'minlanishi lozim. Ilmiy monografiya, risolalar, darsliklar sifati va saviyasi jiddiy nazorat qilinmog'i lozim. Fan nomzodlari va doktorlari tarkibida yosh olimlar ko'payishiga erishmoq lozim. Buning uchun maxsus dastur va aniq yo'naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqmoq zarur. Yaqin

kelajakda har bir sohada eng kamida 2-3 ta fan doktori bo‘lishiga harakat qilish lozim. Ayniqsa mehnat huquqi, soliq huquqi, ma’muriy huquq, bojxona huquqi, xo‘jalik huquqi sohalarida maqsadli dastur ishlab chiqish va uni ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor berish lozim;

Yettinchidan, yaqin kelajakda o‘zbek milliy huquq maktabi o‘z qiyofasiga ega bo‘lmog‘i lozim. O‘zbek milliy huquq maktabi o‘tmish alloma mutafakkirlarimiz ta’limotiga asoslanishi, ustoz va shogirdlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ishonch, hurmat, ilmga chanqoqlik asosida qurilmog‘i, o‘ziga xos ilmiy izlanishlar uslubi, ilmiy izlanishlarning, yo‘nalishlarning va ilmiy tadqiqotlarning natijalari bilan dunyodagi boshqa huquq maktablaridan farq qilmog‘i lozim. O‘zbek milliy huquq maktabi negizida har bir soha bo‘yicha fan doktorlari o‘z ilmiy qiziqishlari doirasiga va shogirdlar guruhiga ega bo‘lishi lozim;

Sakkizinchidan, O‘zbekiston Respublikasida yuridik fanlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi muayyan muvofiqlashtiruvchi organning tuzilganligi ayni muddao bo‘ldi. Ushbu muvofiqlashtirish organining huquqshunos olimlarni o‘ziga jamlagan va yirik ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ilmiy tadqiqot muassasasi huzurida tuzilganligi ham diqqatga sazovordir. Muvofiqlashtiruvchi organ yuridik fanlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishi olib boruvchi barcha o‘quv va ilmiy muassasalarning boshini qovushtirishi, bir maqsad yo‘lida ularni birlashtirishi, ilmiy izlanishlardagi turli takrorlashlar va o‘zaro nomuvofiqliklarni bartaraf etish vazifasini bajarishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan tub islohotlar huquqiy asoslarining mazmun-mohiyatini tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarni samarali olib borish, ular asosida yangidan-yangi innovatsion g‘oyalarning ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini bajarishga, ushbu hujjatning bosh g‘oyasi hisoblangan “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishga, mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlikni ta’minlashga, pirovardida yangi O‘zbekistonni barpo etishga xizmat qiladi.

Rustambayev M.X. Huquqshunoslikka oid ilmiy tadqiqot ishlarining innovatsion jozibadorligini oshirishning dolzarb muammolari

Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning mazmun-mohiyati, ularni amaliyotda ta’minlashni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishning dolzarb masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ilm, fan, huquq, islohot, sud-huquq, ilmiy-tadqiqot, g‘oya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, fuqarolik qonunchiligi, jinoyat qonunchiligi.

Рустамбаев М.Х. Актуальные вопросы повышения инновационной привлекательности юридических исследований

В статье рассмотрены особенности и сущность правовых реформ, осуществляемых на сегодняшный день в стране, а также актуальные вопросы совершенствования механизма применения инновационных разработок на практике.

Ключевые слова: инновация, знание, наука, право, реформа, судебно-правовой, научно-исследовательский, идея, правовое государство, гражданское общество, гражданское законодательство, уголовное законодательство.

Rustambayev M.X. Current issues of increasing the innovative attractiveness of legal research

In the article studied the essence and features of legal reforms carried out today in the country, topical issues of developing innovative ideas to ensure their improvement in practice.

Key words: innovation, knowledge, science, law, reform, judicial and legal, research, idea, rule of law, civil society, civil law, criminal law.

Muxammadiyev Ayub Abduraxmanovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Fuqaroviy - huquqiy fanlar" kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

YURIDIK ETIKETNING TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Yuristning muomala madaniyati yuqori darajada bo'lishi shart. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev huquqiy madaniyat masalasiga e'tibor qaratib, "...qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi" [1], deb ta'kidlab o'tganligini alohida qayd etish lozim. Prezident tomonidan huquqiy madaniyatining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi huquqiy madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan nutq madaniyatiga, yuridik etiketga bo'lgan ijobiy munosabatning bir ko'rinishi tariqasida namoyon bo'ladi.

> ***Etiket*** (frans. *"etiquette"*) - bu *o'zaro insoniy munosabatlarning tashqi ko'rinishlarini tartibga soluvchi o'rnatilgan xulq-atvor tartibi, ya'ni atrofidagilar bilan muloqotda bo'lish, murojaat qilish va salomlashish, jamoat joylarida o'zini tutish, xatti-harakat va kiyinish kabilarni o'z ichiga oladi.*

Nutq madaniyati nutq so'zlash, ma'ruza qilish, o'zaro muloqotlar, savol-javob, davra suhbatlarida o'zbek adabiy tilining boyliklaridan samarali foydalanish; g'oyaviy, mafkuraviy, ma'naviy, tarbiyaviy jihatlarni singdirish, xalq og'zaki ijodi, hikmatli so'zlar, maqollar, kattalar o'gitlaridan o'z o'rnida, me'yorida foydalanish; nutq qisqa, aniq-ravshan, teran, mazmunli, keng qamrovli bo'lishiga erishish, nutq, ma'ruza, suhbat oxirida qisqa xulosalar chiqarish; zaruriyat tug'ilganda tinglovchilar, suhbatdoshlar bilan odob doirasida, vazminlik asosida bahslashish, munozara qilish kabi xususiyatlarni o'z ichida mujassam etmog'i lozim [2].

Turli xil yuridik mutaxassisliklar vakillarining o'zaro, xizmat jamoalarida, shuningdek, fuqarolar bilan xizmat muomalasi turli xil sharoitlarda bo'lib o'tadi va turli shakllarda yuz beradi va ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

Birinchisi kundalik xizmat muomalasi bo'lib, ularga suhbatlar, uchrashuvlar, qabulga kelganlarni qabul qilish, yig'ilishlar, yig'inlar, konferensiyalar, korxonalar va muassasalarga borish, fuqarolarning yashash joylariga borish, navbatchilik, qo'riqlash kiradi.

Ikkinchisi xizmat muomalasining o'ziga xos shakllari bo'lib, ularga xizmat jamoasidagi muomala, bo'ysunish shakllari bo'yicha muomala, hamkasblar bilan muomala, o'qituvchilarning tinglovchilar bilan o'quv jarayonida muomalasi, chet ellik fuqarolar bilan xizmat uchrashuvlari kiradi.

Uchinchisi ekstremal (eng past yoki eng yuqori darajadagi ko'rsatkichlar bilan harakatlanadigan) xizmat muomalasi shakllari bo'lib, ularga nizoli holat sharoitlaridagi muomala, mitinglar, namoyishlar, ommaviy yurishlar qatnashchilari bilan muomalada, tintuv vaqtida ushlangan shaxs bilan muomala, maxsus kontingentlar bilan muomalalar kiradi.

To'rtinchisi muomalaning o'ziga xos bo'lmagan shakllari bo'lib, ularga jurnalistlar bilan ommaviy uchrashuvlar, radio, televideniya va matbuotda chiqishlar, telefon, teletayp, radioaloqa, xizmat yozuvlari, imzo chekishlar kiradi.

Bundan tashqari borliq munosabat shakllarining orasida nutq madaniyati, tashqi ko'rinish, imo-ishora, ohang kabi muomala qoidalari qismlari hisoblanuvchi holatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi va ularning har biriga qo'yilgan axloqiy talablar mavjud va

ularga rioya qilmaslik ko‘zlangan maqsadga erishishga to‘sqinlik qiladi.

Yuristning kasbiy faoliyat natijasi shaxsiy uchrashuvlar, suhbatlar, yig‘ilishlarga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. To‘g‘ri o‘tkazilgan suhbat maqbulroq va suhbatdoshingizni o‘z tutgan yo‘lingizga ishontirishga va sizning shartingiz hamda qaroringizni qabul qilishga majbur qilishga birdan-bir imkoniyat hisoblanadi. Tabiiyki, har bir uchrashuv yoki suhbat uning barcha tomonlarini oldindan ishlab chiqishni talab qilmaydi, lekin muhimlari uchun buni amalga oshirmasa bo‘lmaydi. Uncha ahamiyatli ko‘rinmagan uchrashuv va suhbatlardan qochmaslik kerak, bunday suhbat va uchrashuvlar oxir-oqibat kelgusida bo‘lajak bunday uchrashuv va suhbatlarning to‘g‘riroq tashkil etilishiga va ishda omadlar keltirishiga ko‘maklashadi.

Psixologlarning tavsiyasiga ko‘ra miyaning eng yuqori faollik nuqtasi kunduzgi soat 10-12 larga to‘g‘ri kelishi sababli, eng muhim va aqliy va psixologik kuch-quvvat sarflashni talab qiladigan uchrashuvlarni ish kunining birinchi yarmiga tayinlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yurist suhbatga tayyorgarlik ko‘rishda suhbatdoshini o‘rganishi kerak bo‘ladi, u jamiyatda qanday o‘rinni tutadi, o‘ziga nisbatan uning munosabati qanday, u o‘zi qanday inson, u nimani xohlaydi, biografi-yasining asosiy holatlari qanaqa, uning shaxsiy qiziqish doirasi va boshqa holatlarni ham o‘rganish tavsiya etiladi. Uchrashuv vaqti oldindan belgilanadi va bu vaqtga boshqa uchrashuv belgilanmasligi va taklif etilganlarni qabulxonada kutishga majburla-maslik lozim. Uchrashuv vaqtini agar muhim masalalarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lib qolmasa ajratilgan vaqtdan cho‘zish odobdan emas. Suhbat vaqtida soatga qarab qo‘yish ham odobdan bo‘lmaydi, sababi bunday harakat odatda uchrashuv vaqti tugadi deb qabul qilinadi. Shuning uchun ham vaqtni his qilishga odatlanish lozim.

Yana bir muhim holatga, *ya’ni o‘z imkoniyatini to‘g‘ri baholash, suhbatda aytmoqchi bo‘lgan asosiy holatlarni oldindan o‘ylab qo‘yish, eng muhim fikrlarni alohida ajratish va ularni tartibli bayon qilishni oldindan rejalashtirish kerak.*

Uchrashuv va suhbatni o‘tkazish chog‘ida etiketning keyinchalik ishning natijasiga jiddiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan *“mayda-chuyda”*lariga ham e’tibor qaratish lozim.

Masalan, kabinetga kirishdan oldin, hatto kotiba taklif etgan bo‘lsa-da, ruxsat so‘ralishi kerak. Kotiba ergashtirib kirib, rahbarga sizni tanishtirsa ruxsat so‘rashga hojat yo‘q. Rahbar, o‘z navbatida, bosh harakati bilan roziligini bildirib qolmasdan, balki o‘rnidan turib kabinetiga kirgan shaxsning qarshisiga chiqib salomlashadi. Stol ortidan turib salomlashish odobdan emas. Agar suhbatdoshlar notanish bo‘lsalar, u holda bir-birlarini tanishtirganlaridan keyin, kabinet sohibi mehmonga o‘tirishni taklif etadi. Kabinet sohibi-mezbon va mehmonning joylashish o‘rinlari suhbatning borishiga ta’sir ko‘rsatadi. Agarda kabinet sohibi o‘z o‘rnida qolsa bu unga katta imkoniyat tug‘diradi va suhbatda ustunlikka ega bo‘ladi. Agar kabinet sohibi-mezbon mehmonning qarshisiga yoki yoniga o‘tirsa bu tenglikka harakat qilishni, suhbatdoshiga hurmatni, yaqin munosabatni va norasmiy suhbatga intilishni bildiradi. Suhbat davomida to‘gri va erkin o‘tiriladi. Ish yuzasidan bo‘ladigan muzokaralarda qatnashayotganda chekmaslikka, eng muhimi mezbonning ruxsatisiz chekmaslikka harakat qilinadi. Aslida bunday iltimosning qilinmagani ma’qul, chunki rad qilinsa noqulaylik paydo bo‘ladi.

Suhbat jarayonida nafaqat yuz-chehraninig holati, o‘zini tetik tutishlik, tirnoq va sochlarning olinganligi, balki kiyimlarning ham, ularning holatining ham, bu kiyimlarda o‘zini erkin tuta bilish ham muhim ahamiyatga ega. Ozoda va xushbichim kiyinganlik ish bo‘yicha sheriklarda ijobiy tushuncha uyg‘otadi, shu sababli unga e’tiborsizlik bilan qaralmaslik kerak.

Suhbat va uchrashuvlarda nutq va uni izhor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Haddan tashqari tez va ko‘p so‘zli nutqlar uning muallifining uncha ishonchli emasligi haqida taassurot qoldiradi. Haddan tashqari sekin nutq achchiqlanishga-g‘ijinishga va

uning sohibining sust harakat qilishi haqida o'ylashga majbur qiladi. Xalqda kimda kim tiniq fikrlasa u fikrini tiniq ifodalaydi, degan naql bor. Nutqingiz suhbatdoshingizga qanchalik tushunarli bo'lsa, shunchalik umumiy til topib ketishingizga imkoniyat topiladi.

Suhbatni shoshmasdan, ovozni ko'tarmasdan va jahllashayotganini, hatto unga asos bo'lsa-da, suhbatdoshiga bildirmaslikka harakat qilishi lozim. Qiziqqonlik va shoshma-shosharlik suhbatda foyda bermaydi. Ishonarli va shoshilmasdan ifodalangan nutq suhbatdoshda katta taassurot qoldiradi.

Suhbatdoshingizga e'tiborli bo'ling, u keltirgan vajlarga ular kuchsiz bo'lsa-da qadrlang, aks holda xizmat muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agarda suhbatdoshingiz sizdan darajasi pastroq yoki sizga tobe bo'lsa o'zingizning shaxsiy yoki kasbiy ustunligingizni namoyish qilishingiz aqlsizlik bo'ladi. Bunday holat shaxsiy ishonchsizlikka olib keladi xolos.

Xizmat munosabatlarida suhbatdoshni e'tibor bilan eshitish muhim ahamiyat kasb etadi. Suhbatdoshini og'ir vaziyatda eshita bilish o'zaro tushunishning omili hisoblanadi, uningsiz xizmat munosabatlari o'rnatilmasligi mumkin. *Shu sababli bunday vaziyatda samarali eshitishning quyidagi* ***asosiy etik qoidalari ishlab chiqilgan***:

- o'zini xizmat suhbati, bahs, yig'ilish mavzusi bo'yicha ichki manfaati yo'nalishiga qarata bilishi;

- gapirayotganning-axborot berayotganning asosiy fikrlarini o'zi uchun ajratib olish va ularni to'g'ri tushunishga harakat qilish;

- olingan ma'lumotni o'zidagi shaxsiy ma'lumotlar bilan tezgina solishtirish va yig'ilish, bahs, suhbatning asosiy mazmuniga tezlikda hayolan qaytish. [3]

Suhbatdoshni eshitish uning fikrlarini idrok qilish, mag'zini chaqish va tushunishni o'z ichiga oladi. Xodim suhbatdoshini diqqat bilan tinglamasligi oqibatida ushbu talablarning qaysi biri buziladi va suhbatdoshi fikrini tushunish xato bo'lib chiqadi. Tan olish kerak sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar kasb egalarining hammasi ham suhbatdoshini eshita oladi deb bo'lmaydi.

*G.A.Vasilyeva*ning fikrini e'tirof etgan holda, aytilganlardan ayrim xulosalar chiqarib, o'zimiz va ish uchun foydali bo'ladigan suhbatdoshni eshitishni o'rganishga yordam beradigan bir necha zarur qat'iy axloqiy qoidalarni keltirib o'tamiz, *ya'ni suhbatdoshni eshitayotganda*:

1) suhbatdoshga qarshi shaxsiy ogohlantirishlarni unutish lozim;

2) javob va xulosalar qilishga shoshilmaslik kerak;

3) faktlar va xulosalarni farqlay bilish lozim;

4) nutqingiz o'ta tushunarli va aniq bo'lishini kuzatib boring;

5) suhbatdoshingizdan eshitganlaringizni baholashda adolatli bo'lish;

6) eshitayotganday bo'lib o'zingizni ko'rsatmasdan, boshqa fikrlar bilan chalg'imasdan, suhbatdoshni haqiqiy eshitish lozim. [4]

Xizmat yuzasidan suhbatda va uchrashuvlarda mutaxassislar tomonidan umumlashtirilgan quyidagi ayrim qoidalarga rioya qilinganda omadga erishish mumkin bo'ladi:

- oldindan suhbat rejasini tuzish;

- suhbat davomida suhbatdoshga psixologik ta'sir o'tkazish, ya'ni noxush holatlarni ko'ngilli holatlar bilan almashtirib turish, suhbatning boshlanishi va oxiri ijobiy bo'lishi lozim;

- suhbatdoshning qiziqishlari, nimani kutayotganligi, tutgan pozitsiyasi, o'z qadr-qimmatini his qilishi, o'zini yaxshi ko'rishini doimo e'tiborda tutish;

- o'z fikri va takliflarini aniq, qisqa va tushunarli bayon qilish;

- suhbatdoshni hech qachon va har qanday holatda ham haqorat qilmaslik va xafa qilmaslik, u bilan xushmuomalali, iltifotli, andishali, muloyim bo'lish;

- hech qachon boshqalarga nopisandlik bilan qarash mumkin emas;

- maqtovni o'z o'rnida, me'yorida qilish lozim;

- imkoniyat bo'lganda har doim suhbatdoshning haqligini tan olish.

Xulosa o'rnida aytilganda, yuristlar

kasbi nuqtai nazaridan doimo xalqning, jamoatchilikning nazarida bo‘lar ekan, o‘zaro, xizmat jamoalarida, shuningdek fuqarolar bilan xizmat muomalasi turli xil sharoitlarda bo‘lib o‘tar ekan va turli shakllarda yuz berar ekan, borliq munosabat shakllarining orasida nutq madaniyati, tashqi ko‘rinish, imo-ishora, ohang kabi muomala qoidalari qismlari hisoblanuvchi holatlar ham muhim ahamiyat kasb etishiga va ularning har biriga qo‘yilgan axloqiy talablarga rioya qilishlik ko‘zlangan maqsadga erishishga, muomala madaniyatining yuqori darajada bo‘lishiga va pirovard natijada yuridik etiketning to‘laqonli amalga oshirilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.Т., “Ўзбекистон” НМИУ,Т.I. 2017. Б -108.

2. Сатиб-Алдиев А.А. Педагогик атамалар изоҳли луғати. Ўқув-методик қўлланма. Тошкент ОУҚБЮ, 2011. – 37-38-б.

3. Васильева Г.А. Профессиональная этика юриста. Челябинск, 2005.-128-129 b.

4. Васильева Г.А. Профессиональная этика юриста. Челябинск, 2005.-134-135 b.

Muxammadiyev A.A. Yuridik etiketning turlari va o‘ziga xos xususiyati

Maqolada yuridik etiketning turlari va o‘ziga xos xususiyati, turli xil yuridik mutaxassisliklar vakillarining o‘zaro, xizmat jamoalarida, shuningdek fuqarolar bilan kundalik xizmat muomalasida, xizmat muomalasining o‘ziga xos shakllarida, ekstremal xizmat muomalasi shakllarida va muomalaning o‘ziga xos bo‘lmagan shakllarida yuz berishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yuridik etiket, yuridik mutaxassis, xizmat jamoalari, kundalik xizmat muomalasi, ekstremal xizmat muomalasi, ommaviy uchrashuvlar, yig‘ilishlar, yig‘inlar, konferensiyalar, telefon, teletayp, radioaloqa, xizmat yozuvlari, imzo chekishlar.

Мухаммадиев А.А. Виды и особенности юридического этикета

В статье рассмотрены виды и специфика юридического этикета, взаимодействие представителей различных юридических специальностей, служебных сообществ, а также повседневные служебные отношения с гражданами, специфические формы служебного обращения, формы экстремального служебного обращения и особенности обращения неспецифических форм поведения.

Ключевые слова: юридический этикет, юридический эксперт, служебные коллективы, ежедневное служебное обращение, экстремальное служебное обращение, публичные собрания, собрание, конференция, телефон, телетайп, радиосвязь, служебные записи, подписи.

Muxammadiyev A.A. Types and features of legal etiquette

The article discusses the types and specifics of legal etiquette, the interaction of representatives of various legal specialties, service communities, as well as everyday official relations with citizens, specific forms of official address, forms of extreme official address and features of addressing non-specific forms of behavior.

Key words: legal etiquette, legal expert, service teams, daily official address, extreme official address, public meetings, meeting, conference, telephone, teletype, radio communication, official records, signatures.

Usmonov Muhammadi Bahritdinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari” kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

INNOVATSION HAMKORLIK VA ILMIY TADQIQOT NATIJALARINING AMALIYOTGA TATBIG‘I SAMARADORLIGI MUAMMOLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [1] farmonida mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish; fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish kabi vazifalar belgilab berildi.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun Yurtboshimiz asarlaridagi jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi vazifalarning ijrosini ta’minlash va amaliyotga tatbiq etish yuridik fanlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni samarali olib borish va rivojlantirishni, yetuk malakali yuridik kadrlar tayyorlashni sifat tomonga takomillashtirishni taqozo etadi. Huquq sohasidagi ilmiy tadqiqotlar innovatsion korporativ hamkorlikda olib borilsa, ko‘zlangan pirovard maqsadlarga erishish samaradorligi yanada yuqori bo‘ladi.

Mamlakatimizda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [2] Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qarorlarida belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash, ularning bajarilishi yuzasidan monitoringni yo‘lga qo‘yish hamda innovatsion hamkorlikni rivojlantirish, fan va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ hamkorligini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar izchil tarzda amalga oshirib kelinmoqda.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi bilan birgalikda ishlangan qonunchilikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbol chora-tadbirlar rejasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari, amaldagi qonunlari, Oliy sud Plenumi qarorlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish va yangi qonun loyihalari tayyorlash ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda.

Mamlakatimizning huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik kafedralarining yetuk professor-o‘qituvchilari, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilaridan iborat innovatsion guruhlar tashkil etilgan bo‘lib, ular tomonidan muntazam ravishda o‘quv darsliklari va qo‘llanmalari, amaldagi qonunlarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha qonun loyihalari, amaldagi Kodeks va qonunlarga sharhlar tayyorlanmoqda.

Ko‘pgina huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari kafedralarida innovatsion guruhlar tomonidan shakllantirilgan yagona axborot bazasi asosida magistrlik, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori va doktorlik dissertatsiyalari mavzulari bazasi shakllantirilgan, shuningdek, davlat idoralari, korxonalar manfaatlaridan kelib chiqib, ular bilan shartnoma asosida amaldagi qonunlarga sharhlar tayyorlab berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, shunday guruhlar

tomonidan so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi bilan shartnoma asosida O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi, “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi va “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlariga sharhlar tayyorlab berildi.

Shuningdek, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 70 yilligiga bag‘ishlangan turkum risolalar chop etildi. Vazirlar Mahkamasining topshirig‘iga binoan yuridik yo‘nalishdagi kollejlar uchun darslik va Markaziy saylov komissiyasining buyurtmasi asosida saylov qonunchiligini keng aholi o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan risolalar tayyorlandi va ko‘plab qonun loyihalari ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va boshqa davlat organlariga yuborilgan takliflarning aksariyati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan inobatga olinmoqda.

Bugungi kunda huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Konstitutsiyaviy sudi, Adliya vazirligi qoshidagi ilmiy, ekspert va maslahat kengashlari a’zosi hisoblanadi. Ushbu muassasalarning yetuk olimlari hozirda tayyorlanayotgan Jinoyat Kodeksi, Fuqarolik Kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodekslarni ishlab chiqishda va Jinoyat-protsessual Kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qonun loyihasini tayyorlashda faol qatnashmoqdalar.

Mamlakatimizning huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlarining yetuk malakali mutaxassislari ilmiy, o‘quv muassasalari, huquqni muhofaza qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari uchun malakali kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. Ushbu davlat muassasalari vakillari stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchi va katta ilmiy xodim-izlanuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatib, ilmiy izlanishlar ustida tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu o‘quv muassasalarida stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchi, iqtidorli talabalar va hamkor korxona vakillari tarkibidan iborat innovatsion guruhlar shakllantirilib, ular innovatsion g‘oyalar ustida ish olib bormoqdalar.

Innovatsion guruhlar tomonidan nufuzli oliy o‘quv yurtlari, kollej va litseylar bilan shartnomalar tuzilib, tayyorlangan adabiyotlar ushbu o‘quv yurtlariga yetkazib berilmoqda. Kafedralarda turdosh korxona va tashkilotlar muammolari asosida namunaviy mavzular bazasi amaliyot talablaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan, bu mavzular mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, sud-huquq islohotlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular asosida magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mutaxassislik kafedralarida namunaviy mavzular asosida magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarining mavzulari shakllantirilgan va himoya qilingan dissertatsiyalar natijalari amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda. Doktorlik dissertatsiyalarining dolzarb mavzulari sirasiga: mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy masalalari, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirishni huquqiy ta’minlash, O‘zbekistonda parlamentarizmni rivojlanish istiqbollari, O‘zbekistonda sud-huquq islohotlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, qonunlarni liberallashtirish, jazo tizimi va uni takomillashtirish, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashning samarali huquqiy vositalarini vujudga keltirish, O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishni xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishning ilmiy asoslari kiritilgan bo‘lib, yuqoridagi dolzarb muammolar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, huquqning yangi tarmoqlari – tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, soliq, mehnat, xo‘jalik, bojxona huquqi hamda

xalqaro xususiy huquq sohasida ilmiy-tadqiqotlarni jonlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Innovatsiya vazirligi tomonidan e'lon qilingan fundamental, amaliy hamda yosh olimlar davlat granti bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida davlat va huquqning dolzarb muammolariga bag'ishlangan monografiyalar, risolalar, konferensiya materiallari to'plamlari chop etilib, ularda sud-huquqiy hamda qonunchilik tizimini takomillashtirishga doir qator takliflar ishlab chiqilmoqda va davlat hokimiyati oliy organlariga yuborilmoqda.

E'tiborli tomoni shundaki, ushbu oliy ta'lim muassasalari kafedralarining ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar banki shakllantirilgan bo'lib, u har akademik semestr boshlanishida yangilanib borilmoqda. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot Markazi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bank va moliya Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqalar bilan innovatsion hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizning huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilib, ularga tajribali professor-o'qituvchilar biriktirilgan. Iqtidorli talabalar innovatsion guruh a'zolari hisoblanib, ular tomonidan risolalar, maqolalar chop etilib, innovatsion hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy-nazariy konferensiyalar o'tkazib kelinmoqda. Ushbu innovatsion guruh a'zolari uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, ular texnika vositalari va elektron axborot resurslari bilan ta'minlangan.

Ma'lumki, ilmiy tadqiqotlarning bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi bilan belgilanadi. Jumladan, doktorlik va falsafa doktori dissertatsiyalari asosida ilmiy monografiya, risola, ilmiy maqolalar nashr qilish amaliyoti joriy qilingan bo'lib, olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida o'quv jarayonida foydalanishga xizmat qiladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar tayyorlanmoqda va ular o'quv jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar salmog'i e'tiborga loyiq, ammo hali qilinadigan, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ham talaygina. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi [3] Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrdagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4] qarori talablaridan kelib chiqqan holda birinchidan, doktorlik dissertatsiyalari mavzulari bazasini bugungi kun yangi islohotlar talablari asosida shakllantirish; ikkinchidan, shakllantirilgan mavzular doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni yo'lga qo'yish; uchinchidan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlarni, ilg'or jahon tajribasi va ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, shuningdek dissertatsiya tadqiqotlarining sifati, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishiga sharoit yaratish maqsadida oliy ma'lumotga ega bo'lgan, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida doktorlik

dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini beruvchi ixtisoslashgan kengashlar tomonidan berish; hamda o‘rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchi sifatida rasmiylashtirilgan, «bakalavr» yoki «magistr» darajasi bilan oliy ma’lumotga, 3 yildan kam bo‘lmagan amaliy ish stajiga ega bo‘lgan, ilmiy izlanishlarga layoqati mavjud, belgilangan talablarga mos keladigan ma’lum bir ilmiy yutuqlarga (ixtiro uchun patentlar, ilmiy maqolalar, ilmiy-texnologik ishlanmalarda qatnashish va boshqalar) ega bo‘lgan shaxslarga ham yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilishga ruxsat berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 15 июлдаги “Инновацион лойиҳалар ва технологияларни ишлаб чиқаришга татбиқ этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги қарори //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2018 й., 06/18/5399/1018-сон; 19.06.2020 й., 06/20/6011/0780-сон, 28.09.2020 й., 06/20/6075/1330-сон;

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 24 июлдаги “Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 30-сон, 346-модда, 30-сон, 347-модда;

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 28 декабрдаги “Олий ўқув юртидан кейинги таълим ҳамда олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларни аттестациядан ўтказиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 1-сон, 5-модда; 2017 й., 21-сон, 396-модда; 07.11.2020 й., 09/20/696/1481-сон.

Usmonov M.B. Innovatsion hamkorlik va ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbig‘i samaradorligi muammolari

Maqolada huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy ta’lim va ilmiy muassasalar olimlari tomonidan innovatsion hamkorlik va ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi samaradorligini oshirish muammolari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ilmiy tadqiqot, oliy ta’lim, ilmiy muassasalar, yuridik fanlar, innovatsion hamkorlik, nomzodlik dissertatsiyasi, doktorlik dissertatsiyasi, ilmiy kengash, ekspert kengashi.

Усмонов М.Б. Проблемы инновационного сотрудничества и эффективности результатов научных исследований

В статье рассмотрены проблемы повышения результативности научных исследований в сфере высшего образования, а также практика инновационного сотрудничества учреждений юридического профиля.

Ключевые слова: инновация, научное исследование, высшее образование, научное учреждение, юридические науки, инновационное сотрудничество, кандидатская диссертация, докторская диссертация, научный совет, экспертный совет.

Турсунова Мадина Улугбековна,
докторант кафедры международного права и прав человека ЮНЕСКО Университета мировой экономики и дипломатии, доктор философии по юридическим наукам (PhD)

МЕЖДУНАРОДНЫЙ МОНИТОРИНГ И ОЦЕНКА КАЧЕСТА ОБРАЗОВАНИЯ

На сегодняшний день ни исследователи, проводившие анализ проблемы определения качества образования, ни субъекты образовательного процесса, к сожалению, не могут дать чёткого определения качества образования, а также точно обозначить направления по его оценке. Анализ образовательного процесса осуществляют комплексными методами, изучая составляющие образовательный процесс макро и микро образовательные элементы, оказывающие непосредственное влияние на осуществление деятельности института. К субъектам изучения образовательного процесса следует отнести и социологию. Основной методологический вопрос При проведении оценки качества для образования, основным методологическим вопросом для социологии является то, что в условиях отсутствует общее определение «качество образования», создание индикаторов качества, его критериев, а также его способов измерения. Также создается недопонимание о надобности (не надобности), исходя из унифицированных мониторинговых показателей формирование системы, комплексных методик измерения качества образования [1].

Г.Шрикантхан и Ж.Ф.Далрымпле указывали на то, что нужно разрабатывать единую модель качества высшего образования [2]. Е.Ван Кеменаде, М.Пупиус, Т.В.Харджоно анализируя разные факторы, оказывающие воздействие на качество образования, отмечали, что особое внимание необходимо уделять средствам оценки качества образования, а именно технологиям оценки качества и мониторингу [3]. Согласно мнению исследователей Ж.Лаутарда и Г.Бенингтона оценка качества образования выступает инструментом информированности о результатах и состоянии образовательного процесса [4].

Что касается административного подхода, то он исходит из того, что качество образования должно соответствовать определенным стандартам. Если следовать образовательным стандартам предметом оценки будет выступать степень подготовленности обучаемых, а объектом сами обучаемые. Из этого следует, что с помощью внешних критериев будет осуществляться оценка качества образования. Если следовать государственным стандартам, то оценка качества образования будет обеспечиваться через аккредитацию вуза, его рейтинга, аттестации и лицензирования. В вузах данная система построения имеет в большей степени нормативный характер.

На наш взгляд необходимо отметить, что выстраивание рейтинга вуза осуществляется посредством количественных показателей определяющие у одного оцениваемого объекта его предпочтения перед другим объектом.

Рейтинг вуза является определенным показателем исходящий из системы определенных признаков, необходимых для обеспечения выбора и оценки потребителя между однопрофильными вузами.

Руководство в целях повышения рейтинга направляют деятельность вуза на улучшение критериев подлежащих рейтинговой оценки. В связи с чем, можно сделать вывод, что к оценки качества образования административный подход подразумевает применение к качеству образования формальных критериев и параметров, а также применение в большей степени к оценке качества образования статистических методов и процедур.

Согласно международному опыту в систему качества высшего образования входит госакредитация, аттестация и лицензирование. Так один из показателей

деятельности вуза показывает внутривузовскую систему контроля качества образования, а именно его наличие и эффективность.

В мировой практике имеются разные модели используемых внутренних систем обеспечения качества подготовки специалистов, но самую большую распространенность имеют такие концепции как:

- SWOT- анализ (оценочный метод управления качество организации вуза);
- TQM- основана на принципах всеобщего менеджмента качества;
- Серия стандартов ISO 9000:2000 – за основу взяты требования международных стандартов качества.

О.В. Гордеева считает, что в нынешних условиях формирования и поддержания своего положительного образа заняты помимо крупных организаций также и вузы. Данный фактор обусловлен тем, что происходит постоянный рост конкуренции в сфере образовательных услуг, а также в связи с тем, что с каждым годом происходит ухудшение демографической ситуации. В связи, с чем вузам, если они не хотят остаться без абитуриентов, необходимо проводить постоянную работу по сохранению имиджа [5].

В условиях конкурентной среды создание и поддержание имиджа даёт вузу в сфере образовательных услуг определённый резерв. На наш взгляд неоспоримым является такое высказывание, что репутация является не только категорией морально – этнического характера, но и материального.

Имидж способен приносить доходы и увеличивать конкурентоспособность. Имидж, который является положительным и устойчивым оказывает воздействие в качестве стимула по выбору услуги на первоначальном этапе, главный мотив выбора услуги у одного учреждения по отношению к другому [6]. То есть имидж является для позиций вуза фактором укрепления, который его преимущества обеспечивает по отношению перед другими вузами.

Для создания имиджа на международном и национальном уровне одним из основных направлений является проведение с иностранными вузами совместных образовательных программ.

Узбекские студенты имеют право выезжать в индивидуальном порядке в партнёрские университеты и принимать участие в конкурсах для получения определённых льгот и грантов. В узбекских вузах используется данное направление, так имеются программы по обмену студентами, финансируемые, как государством, так и частными организациями.

На наш взгляд необходимо увеличить число таких программ, грантов и стипендий в связи с тем, что данный фактор имеет очень большое влияние на формирование имиджа, как национальной системы образования, так и на имидж конкретно взятого вуза. Сотрудничество с иностранными вузами имеет огромное влияние на качество национального образования, но также же создаст эффект узнаваемости определённого национального вуза в стране – партнёре. Также посредством межвузового партнёрства можно произвести обмен технологиями и совместно проводить работу по реализации какого-нибудь научно – исследовательского проекта.

В педагогическом аспекте отражено содержание и характер воспитательно – образовательного процесса взаимодействия субъектов.

Организационный аспект, исходя из теоретической модели педагогической стратегии, как фактор создания конкурентоспособности вуза, отвечает на вопросы касающиеся обучения и воспитания студентов.

Согласно мнению такого исследователя, как А.А Володин под организационно-педагогическими условиями понимает характеристику педагогической системы, отражающую совокупность потенциальных возможностей пространственно-образовательной среды, реализация которых обеспечит упорядоченное и направленное эффективное функцио-

нирование, а также развитие педагогической системы [7].

На основании вышеприведённых точек зрения исследователей, касаемо термина «организационно - педагогические условия», дает нам возможность отметить следующие его основные признаки:

- Вышеуказанные исследователи считают, что исходя из ряда объективных возможностей форм, методов и содержания педагогического процесса характеризуется качественность решения задач в данной сфере;

- Данное явление состоит из ряда взаимообусловленных и взаимосвязанных мер воздействия (исходя из определённых ситуаций), состоящие в самой педагогической системе, либо заложенные в основе его управления.

При исследовании научно – педагогической литературы нами сделан вывод о том, что при реализации педагогической стратегии организационно - педагогические условия имеют свойство отражения педагогической системы, которая показывает совокупность потенциальных возможностей образовательного пространства и являются своего рода мерами воздействия направленные на содержание конкурентоспособности вуза [8].

Данное исследование показало, что при формировании организационно - педагогических условий создания конкурентоспособности вуза, необходимо иметь следующие элементы:

- Информационно - методические;
- Учебно - организационные;
- Психолого - педагогические;
- Научно - инновационные;
- Организационно - экономические.

Под организационно - управленческими элементами понимается структура управления создания конкурентоспособности исходя из стратегического планирования.

Под информационно - методическими элементами понимаются развивающие информационную, методическую и педагогическую компетентность научных сотрудников вуза и готовность их к созданию конкурентоспособности вуза.

Под учебно-организационными элементами понимаются учебно- методические образовательные планы и программы по подготовки высококвалифицированных выпускников.

Под организационно – экономическими элементами понимается способность финансирования и материально-техническая база вуза.

Под научно - инновационными элементами понимается деятельность преподавательского состава, направленная на инновационную, опытно- экспериментальную и научную деятельность.

Под психолого - педагогическими элементами понимается стремление к созданию положительной мотивации по формированию конкурентоспособности выпускников.

Согласно мнению такого исследователя как Смирнова С.А., то она считает, что одним из значимых факторов имеющие воздействие на создание качества образования, является сам преподавательский состав. Такой исследователь как Горбунов А.П. говорит о том, что любой вуз имеет цель перехода к креативному инновационному университету.

На наш взгляд комплекс организационно-педагогических условий с одной стороны имеет отношение к общей разработке стратегии вуза, а с другой стороны может также применяться к разработке стратегии у выпускника вуза по формированию его конкурентоспособности (как будущего специалиста) [9].

Стоит сказать, что не только от качества образования и его объема зависит эффективность образования, но также и от уровня его использования на практики. От уровня образования возрастают и шансы получения более высокой заработной платы. Так в мировой практике показатель эффективности образования исчисляется из того, насколько за один год обучения, в процентном соотношении,

повысится заработная плата.

Дистанционное обучение в последние время (данному обстоятельству также способствовала эпидемиологическая ситуация в стране с короновирусной инфекцией) быстрыми темпами набирает обороты. Так дистанционное обучение решает вопросы, связанные с доступностью обучения - в плане территориальности, здоровья и социального статуса обучающегося.

В образовательных системах педагогический мониторинг исследуется, как система контроля и отслеживания, это процесс постоянного наблюдения на всех этапах за совершенствованием и состоянием процесса образования [10]. Под мониторингом качества образования можно понимать процесс прогноза развития и обоснования стратегии посредством наблюдения, отслеживания, анализа, коррекции и сбора результатов.

Основными направлениями мониторинга являются оценивание и отслеживание результата.

Под отслеживанием понимается анализ и контроль за деятельностью по поставленным целям, а также исследование и наблюдением за ним согласно конкретным критериям.

Что касается оценивания, то это процесс сравнивания в соответствии с планируемыми и заданными результатами - полученных результатов, проведение анализа деятельности касаемо поставленных целей и соотношение имеющихся результатов с заданными требованиями.

При проведении педагогического мониторинга с точки зрения механизма управления качеством образования появляются такие проблемы, как отсутствие установленного определения «качество образования», отсутствие у качества образования методик оценки.

Имеется 2 этапа сравнительного исследования:

- посредством проведения полного анализа определение в мире тенденций развития образования;

- в странах-участницах проведение сравнительной оценки уровня образовательной подготовки обучаемых и определение обстоятельств оказывающих воздействие на итоги обучения.

Созданный специалистами стран участниц международный инструментарий адаптируется и проверяется согласно национальной специфики каждой страны.

Осуществляемые исследования ориентируют на совершенствование образования, для принятия управленческих решений формируют информационную основу, как на федеральном, так и на региональном уровня, принимают во внимание зарубежный опыт, подготавливают для соотношения, данные о качестве образования, при осуществлении исследований помогают выполнению комплексного подхода, для всех заинтересованных лиц обеспечивают доступность разработанных методик и критериев.

Применение созданных специалистами технологий педагогических измерений дает возможность на уровне мировых стандартов сформировать в отдельно взятом государстве систему мониторинга качества образования. На результаты обучения может сильнее воздействовать культурные традиции и социально-экономические условия стран, чем ориентированная образовательная деятельность.

В настоящее время имеется большой ассортимент по дистанционному обучению информационно-коммуникационных технологий имеющие разные характеристики. В целях создания их критериальной эффективности нужно самостоятельно осуществить теоретико-методологические исследования и провести их проверку у дистанционного вуза на экспериментальных площадках.

Использованная литература

1. Лубова Т.Н., Исламгулов Д.Р. Оценка качества образования в рамках

компетентностного подхода. // Актуальные проблемы преподавания социально-гуманитарных, естественно-научных и технических дисциплин в условиях модернизации высшей школы. Материалы международной научно-методической конференции. Министерство сельского хозяйства РФ, Башкирский государственный аграрный университет. 2014. С. 189-192.

2. Srikanthan G., Dalrymple J.F. Developing a holistic model for quality in higher education // Quality in Higher Education, 2002. Vol. 8 (3). Pp. 215-224.

3. Van Kemenade E., Pupius M., Hardjono T.W. More value to defining quality // Quality in Higher Education, 2008. Vol. 14 (2). Pp. 175-185.

4. Lyotard J., Bennington G. The postmodern condition: A report on knowledge. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. 108 p.

5. Гордеева О.В. Имидж предприятия сферы услуг: понятие и классификация / О.В. Гордеева // Экономика и управление: новые вызовы и перспективы. - 2013. - № 5. - С. 93-96.

6. Исаков Т.Г. Имидж организации/Т.Г. Исаков. – М. :Лаборатория Книги, 2010. – 83 с.

7. Володин А.А., Бондаренко Н.Г. Анализ содержания понятия «организационно-педагогические условия». Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки 2014. https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-soderzhaniya-ponyatiya-organizatsionno-pedagogicheskie-usloviya

8. Вакуленко Р.Я. Социальная значимость имиджа вуза: проблемы и перспективы междисциплинарных исследований/ Р.Я. Вакуленко, В.В. Колосова // Интернет-журнал «Науковедение». – 2013. - № 6(19). – С. 14.

9. Латышев Д.В. Имидж студента как средство брендоформирования в маркетинговой деятельности вуза / Д.В. Латышев, Т.М. Гомаюнова // Наука. Мысль. – 2017. - № 2. – С. 176-181.

10. Хисматуллина З.Н. Аксиологическое обоснование развития идей о качестве образования как измеряемом социально-педагогическом феномене / З.Н.Хисматуллина // Современные проблемы науки и образования. - 2013. - № 6. -С. 341-347.

11. Валеева Н.Ш., Муртазина Э.М., Амирова Г.Г. Смена парадигм и инновационные методы преподавания в зарубежной высшей школе. Вестник Казанского технологического университета, т. 16, № 20,2013, С. 361-366.

12. Ибрагимов М.Г. Ибрагимова Е.М. Правовое регулирование в сфере образования в контексте государственной образовательной политики // Правовая политика и правовая жизнь. Саратов-Москва: Саратовский филиал Института государства и права РАН, 2012. С. 129.

Tursunova M.U. Ta'lim sifatini xalqaro monitoring qilish va baholash

Maqolada so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilayotgani ta’kidlanadi. Ta’lim sifatini baholashda ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin, masalan, ma’muriy va shaxsiy. Hozirgi vaqtda pedagogik monitoring ham ta’lim sifatini boshqarishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlarda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha qiyosiy xalqaro tadqiqotlar milliy tizimning bir qismi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lib, natijalari ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda qo‘llaniladi. Ta’lim sohasidagi mutaxassislar tomonidan xalqaro tadqiqotlarning tahliliy materiallari asosida milliy ta’lim standartlari yaratilmoqda, ishlab chiqilgan pedagogik o‘lchov texnologiyalaridan foydalanish esa jahon standartlari darajasida ta’lim sifatini monitoring qilishning iqtisodiy jihatdan samarali milliy tizimini shakllantirish imkonini beradi. Har bir davlatda ta’lim tizimi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, muallif mahalliy ta’limning o‘ziga xos pedagogik monitoring tizimini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, ta’limni baholash, ta’lim standarti, reyting baholash, davlat akreditatsiyasi, attestatsiya, litsenziyalash, pedagogik monitoring, o‘quv jarayoni, oliy ta’lim.

Турсунова М.У. Международный мониторинг и оценка качества образования

В статье указывается, что повышению качества образования в последние время все больше уделяется внимания. По оценке качества образования можно выделить два основных подхода, такие как административный и личностный. В настоящее время эффективным механизмом управления качеством образования является также педагогический мониторинг. При этом сравнительные международные исследования оценки качества образования во многих странах значатся, как часть национальной системы, итоги, которых применяются при осуществлении реформ в сфере образования. Специалистами в области образования создаются национальные образовательные стандарты на основе аналитического материала международных исследований, а применение разработанных технологий педагогических измерений дает возможность на уровне мировых стандартов сформировать экономически эффективную национальную систему мониторинга качества образования. В связи с тем, что в каждой стране система образования по своему характеру является уникальной, автором указывается на необходимость для отечественного образования формировать собственную систему педагогического мониторинга.

Ключевые слова: качество образования, оценка образования, образовательный стандарт, рейтинговая оценка, госакредитация, аттестация, лицензирование, педагогический мониторинг, образовательный процесс, высшее образование.

Tursunova M.U. International monitoring and evaluation of the quality of education

The article points out that improving the quality of education has recently been receiving more and more attention. There are two main approaches to assessing the quality of education, such as administrative and personal. At present, pedagogical monitoring is also an effective mechanism for managing the quality of education. At the same time, international comparative studies on the quality of education in many countries are listed as part of the national system, the results of which are used in the implementation of reforms in the field of education. Experts in the field of education create national educational standards based on the analytical material of international research; the application of developed technologies of pedagogical measurements provides the opportunity to form a cost-effective national system of monitoring the quality of education at the level of international standards. Due to the fact that each country's education system is unique in nature, the author points out the need for domestic education to form its own system of pedagogical monitoring.

Key words: quality of education, assessment of education, educational standard, rating assessment, state accreditation, attestation, licensing, pedagogical monitoring, educational process, higher education.

Axmedov Doniyor Anvarjonovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Bronetank va avtomobil texnikasi" kafedrasi boshlig'ining o'rinbosari,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

YO'LLARDA INSON XAVFSIZLIGINI ISHONCHLI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Bugungi kunda yo'l transport hodisasi butun dunyoda global muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bir yilda sayyoramizda 1,35 million kishi yo'l transport hodisasi (YTH) qurboni bo'lmoqda. 50 millionga yaqin inson turli darajadagi tan-jarohatlarini olishmoqda. Inson o'limining sababi bo'yicha yo'l transport hodisalari sakkizinchi o'rinda, 15-29 yoshdagi insonlar o'limida esa birinchi o'rinda bormoqda [1,2].

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra dunyo davlatlari yalpi ichki mahsulotining 1,5-2,5% (520 mlrd. dollar) yo'l transport hodisalari oqibatlarini bartaraf etishga sarflanmoqda. So'nggi 10-15 yillardagi yo'l transport hodisalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, inson o'limiga sabab bo'luvchi holatlar har xil davlatlarda turlicha. Aholi jon boshiga hisoblanganda AQShda har yuz ming nafar aholiga 11,4 nafar o'lim to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich dunyoning turli davlatlarida quyidagicha: Isroilda 4.2, Avtraliyada 6.5, Avstriyada 5.6, Belgiyada 7.4, Kanadada 6.8, Daniyada 4, Finlandiyada 4.7, Fransiyada 5.6, Germaniyada 4.1, Gretsiyada 9.1, Vengriyada 12.0, Italiyada 5.6, Irlandiyada 4.1, Yaponiyada 4.1, Niderlandiyada 4.3, Norvegiyada 5.8, Polshada 9.3, Portugaliyada 7.4, Janubiy Koreyada 9.8, Ispaniyada 14.6, Shveysariyada 2.7, O'zbekistonda esa o'rtacha 7.14 tani tashkil etmoqda.

Respublikamizda o'lim bilan bog'liq yo'l transport hodisalari viloyatlar kesimida turlicha. Toshkent viloyatida har yuz ming nafar aholiga 21 ta, Jizzax viloyatida – 16 ta, Sirdaryo viloyatida – 15 ta, Navoiy va Samarqand viloyatlarida – 14 tadan, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida – 13 tani tashkil etadi. Lekin yuqorida sanab o'tilgan davlatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan transport vositalarining soni O'zbekiston Respublikasiga nisbatan o'rtacha 5 barobar ko'p. Ya'ni Yevropa davlatlarida har 1000 nafar aholiga o'rtacha 400-500 dona avtomobil to'g'ri kelsa, O'zbekistonda 82 ta ni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, insonlar o'limga olib kelgan yo'l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo'lib, avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2022 yil 11 fevral kuni "Xavfsiz va ravon yo'l" tamoyili asosida yo'llarda inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi [3,4]. Videoselektor yig'ilishida 2021 yilda 10 mingdan ortiq yo'l transport hodisasi sodir etilib, ularda 9 mingdan ortiq fuqaro jarohatlanganligini, eng achinarlisi, 2,5 mingga yaqin odam, shu jumladan 263 nafar bola halok bo'lganini ta'kidlab o'tdi. Davlatimiz rahbari tomonidan sohadagi ayanchli holat statistik ma'lumotlar asosida tanqidiy tahlil qilingan. Jumladan, yo'l transport hodisalarining:

- 45 foizi haydovchilarning qoidalarni mensimasligi;
- 10 foizi haydovchilarning tajribasizligi;
- 25 foizi yo'l holati va infratuzilmasi talabga javob bermasligi;
- 20 foizi piyodalarning qoidalarga amal qilmasligi oqibatida sodir bo'lganligi davlat rahbari tomonidan ta'kidlandi.

2021 yilda aniqlangan 7,7 million huquqbuzarlikdan 46 foizi qo'pol

qoidabuzarliklar bo‘lgan. Ulardan:

- mast holda transport vositasini boshqarish Samarqand viloyati - 12 mingta, Toshkent viloyati - 8,5 mingta, Farg‘ona viloyati -7,5 mingta va Toshkent shahrida 7 mingtani tashkil etgan;

- qizil chiroqqa o‘tish Toshkent viloyati - 62 mingta, Samarqand viloyati - 51 mingta va Toshkent shahrida - 47 mingta.

2021 yilda respublika bo‘yicha 95 ming nafar haydovchi 5 tadan ko‘p, 9 ming nafari 20 tagacha, 700 nafari 50 tagacha, 18 nafari 100 tagacha qoidabuzarlik sodir etgan.

Selektor yig‘ilishida Sh.Mirziyoyev tomonidan “Qo‘pol qoidabuzarlarga jazo muqarrarligi ta’minlanishi shart”ligi va yuqoridagi muammolarning barchasi ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham xavfsizlik masalalariga bevosita dahldor ekanligini aytib o‘tdi. Yig‘ilishda avtomobilni tartibsiz boshqarib, boshqa haydovchilarga xalaqit qilganlik uchun alohida yo‘l bezoriligi degan yangi javobgarlik turi kiritilishi va har bir huquqbuzarlik uchun jarima ballari tizimi joriy etilishi belgilandi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni ijrosini ta’minlash uchun ancha eskirgan Yo‘l harakati qoidalarini, xalqaro standartlar asosida yangidan ishlab chiqilishi shartligi ko‘rsatib o‘tildi.

2022-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli Qarori [5] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VM-172-sonli Qarori qabul qilindi [6].

Yangi tahrirdagi “Yo‘l harakati qoidalari”da Prezident tomonidan belgilangan ustuvor vazifalarda kelib chiqib qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. Jumladan:

- maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari atrofidagi yo‘llarda 300 metrgacha bo‘lgan masofada 30 kilometrdan, turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmaslik belgilab qo‘yildi;

- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi respublika komissiyasining qarori asosida Toshkent va Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi yo‘l harakati qatnovi yuqori bo‘lgan va aholi gavjum hududlarda transport vositalari harakatlanishining yuqori tezligi soatiga 60 kilometr etib belgilanishi mumkin;

- yengil avtomobillarda yuk tashishga ularning tom qismiga o‘rnatilgan yukxonadagi yukning balandligi 1 metrdan (maxsus moslamalar bilan mustahkamlangan holda velosipedlarni tashish bundan mustasno) va uzunligi avtomobilning gabaritidan 0,5 metrdan oshmagan taqdirda yo‘l qo‘yiladi;

- yuk avtomobillari, Yo‘l harakati qoidalarida belgilangan ayrim istisnolardan tashqari barcha holatlarda, yo‘lning faqat o‘ng qatnov qismidan harakatlanishi shart;

- transport vositalarining qayrilib olish joylarida va unga 30 metr yetmasdan yoki o‘tib to‘xtash taqiqlanadi;

- sutkaning qorong‘i vaqtida va yetarlicha ko‘rinmaydigan sharoitda velosiped yo‘lkasi bo‘lmagan holda yo‘lning qatnov qismida harakatlanayotgan velosipedchilar nur qaytargichli kamzulda yoki nur qaytaruvchi elementlar bo‘lgan ustki kiyimda bo‘lishi shart.

Yuqorida keltirilgan o‘zgartirishlar maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablar atrofida harakat xavfsizligini ta’minlashda va bolalar ishtirokida sodir bo‘ladigan yo‘l transport hodisalarini oldini olishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan respublikamizda velotransport tarmoqlari keng rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Qoidalarga “velosipedchi”, “velosiped yo‘lkasi” va “velosipedchilar uchun tasma” kabi asosiy atama va

tushuncha kiritilib, velosipedchilarning majburiyatlari aniq belgilab berildi.

Oxirgi yillarda ijtimoiy tarmoqlar va OAVlarida keng muhokamalarga sabab bo'layotgan Qoidalarning II-bobiga quyidagi o'zgartirishlar kiritilgan.

Eski tahrirda:

II-bob. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari.

7-bandi. Mexanik transport vositalarining haydovchisi quyidagilarni yonida olib yurishi va dislokatsiyaga binoan xizmat vazifasini mobil videokamerasi bilan olib borayotgan yo'l patrul xizmati (YPX) xodimlari talab qilganda tekshirish uchun berishi kerak (*01.12.2018 yildagi O'zR VM 975- Qarori*).

Yangi tahrirda:

II-bob. *Haydovchilarning umumiy vazifalari* (majburiyat so'zi vazifa so'ziga o'zgartirilgan);

7-bandi. *Mexanik transport vositasining haydovchisi quyidagi hujjatlarni yonida olib yurishi va IIO xodimlari talab qilganda ularga tekshirish uchun berishi shart* (dislokatsiya hujjati va mobil videokamera yo'q).

11-bandi. **Eski tahrirda:**

z) quyidagi hollarda maxsus xizmat xodimlariga ko'maklashish:

- IIO xodimlariga qonunda belgilangan hollarda kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarish uchun, shuningdek, yo'l transport hodisasi tufayli shikastlangan yoki nosoz transport vositalarini olib ketish (shatakka olish) uchun (faqat yuk avtomobillarida);

Yangi tahrirda:

11-bandi. *z) quyidagi hollarda foydalanish uchun transport vositasini berishi shart:*

*IIO, **Milliy gvardiya**, Davlat xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlari xodimlariga qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarish uchun, shuningdek, yo'l transport hodisasi tufayli shikastlangan yoki nosoz transport vositalarini olib ketish (shatakka olish) uchun (faqat yuk avtomobilidan).* Yangi tahrirga asosan Milliy gvardiya xizmatchilari vakolatlari kengaymoqda.

12-bandi. Haydovchiga quyidagilar taqiqlanadi:

Eski tahrirda:

- transport vositasini boshqarish paytida telefondan, transport vositasi salonining old qismiga ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan o'rnatilgan tele-videomonitordan tele-, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish;

Yangi tahrirda:

- *transport vositasini boshqarish paytida telefondan (telefondan quloqchinlar orqali va qo'llarni ishlatmasdan turib so'zlashuvlar olib borish imkoniyatini beradigan boshqa uskunalar orqali foydalanish bundan mustasno), transport vositasi salonining old qismiga o'rnatilgan tele, videomonitordan tele, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish;* Yangi tahrirga ko'ra transport vositasini boshqarish vaqtida telefondan "blutuz", "quloqchinlar" va "auks" orqali gaplashishga ruxsat berilmoqda.

Undan tashqari Qoidalarning 1-ilovasi "Yo'l belgilari"ga 60 dan ortiq yangi yo'l belgilar kiritilgan. Shunday qilib yangi kiritilgan belgilar bilan qo'shib hisoblanganda jami yo'l belgilari soni 315 tadan ortdi. Belgilarga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi:

1.25.2-"Pastlab uchuvchi qushlar", 1.25.3- "Kemiruvchi va sudralib yuruvchi", 1.33-"Qatnov qismi kesishmasi hududi", 1.35-"Piyodalarning yo'l yoqasidan yurishi mumkin bo'lgan hudud" kabi ogohlantiruvchi yo'l belgilari kiritilgan bo'lib, bular haydovchilarni turli xavf-xatardan ogohlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek respublikaga tashrif buyuruvchi xorijlik mehmon va sayyohlarga qulaylik yaratish va turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 5.47-"Turizm obyektlari yo'nalish ko'rsatkichi", 5.47.1-"Turizm obyektlari", 5.47.2 "Turizm axborot markazi" axborot ko'rsatkich belgilari, 6.19-"Jome' masjidi", 6.20-"Cherkov", 6.21-"Ibodatxona", 6.22-"Temir yo'l vokzali" va

6.23-“Aeroport” kabi jami 13 nomdagi servis belgilari kiritildi.

Yana kiritilgan yangiliklardan biri bu vaqtinchalik yo‘l belgilari alohida ajratib berildi. Ya’ni vaqtinchalik yo‘l belgilarining asosi sariq rangda belgilandi. Bu haydovchilarni aniq va ravshan vaqtinchalik yo‘l belgisini ajrata olishi va unga birinchi navbatda amal qilish kerakligi haqida tushunarli axborot beradi. Eski tahrirda vaqtinchalik yo‘l belgilari asosiy yo‘l belgisi bilan bir xil bo‘lgan.

Yangi tahrirdagi “Yo‘l harakati qoidalari” tahlil qilinganda ko‘plab qo‘pol xato va kamchiliklar ham aniqlandi. Bular:

7.18-“Xavfli yuk toifasi” yo‘l belgisi “Nogironlar mustasno” ko‘rinishida, 7.19-“Evakuator ishlamoqda” yo‘l belgisi “Foto va video qayd etish” ko‘rinishida, 7.20-“Foto va video qayd etish” yo‘l belgisi “Xavfli yuk toifasi”, 7.21-“Nogironlar mustasno” belgisi “Evakuator ishlamoqda” deb qo‘pol xato ko‘rinishida qayd etilgan. Bu yangi yo‘l belgilarini o‘rganayotgan fuqarolarda turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek 3.1, 3.2, 3.3, 3.18.1, 3.18.2, 3.19, 3.27 taqiqlovchi belgilar va 4.1.1, 4.1.2, 4.1.3, 4.1.4, 4.1.5, 4.1.6 buyuruvchi belgilar yo‘nalishli transport vositalariga tatbiq etilmaydi, lekin yangi tahrirdagi qoidalarda bu ma’lumotlar keltirilmagan. Bu esa jamoat transporti haydovchilarida ko‘plab savollarni keltirib chiqarmoqda.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan me’yoriy hujjatlar tahlili va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda haydovchi va yo‘lovchilar uchun xavfsizlik kamarining foydasi va yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lganda inson hayotini saqlab qolishida muhim vosita ekanligi ilmiy asoslangan ko‘rinishda yoritish, to‘g‘ri talqin qilish (hozirda OAV va ijtimoiy tarmoqlarda kamar taqmasa jazo muqarrarligi, jarima to‘lashi shartligi ko‘rinishida emas);

- Toshkent shahri va viloyat markazlarida eng ko‘p yo‘l transport hodisasi sodir bo‘ladigan chorrahalar statistikasi asosida “eng xavfli chorraha” maqomini berish va uning atrofida haydovchi va piyodalar uchun ijtimoiy rolik va reklamalarni yoritish. Ushbu chorrahalarga yaqin joylarda “cheklangan tezlik” yo‘l belgilarini o‘rnatish;

- Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi yo‘llarda harakat oqimini yaxshilash maqsadida yo‘lning alohida harakatlanish bo‘laklari uchun alohida tezlik rejimlarini belgilash, tez tibbiy yordam va o‘t o‘chirish mashinalari uchun alohida harakatlanish bo‘laklarini tashkil etish;

- yangi tahrirdagi yo‘l belgisining transport vositalarining taniqlilik belgilari bo‘limida keltirilgan “Haydovchilikni endi boshlagan shaxs” belgisi tavsiyaviy xarakaterga ega bo‘lib, aslida yosh haydovchiga hech qanday majburiyat yuklamaydi. Ushbu taniqlilik belgisi maqomini kuchaytirish va haydovchilikni endi boshlagan shaxslarga 1 yilgacha tezlikni oshirmaslik, qorong‘u vaqtda transport vositasini boshqarmaslik kabi cheklovlarni kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.who.int/iris/bitstream/handle/10665/44122/9789244563847
2. www.netvalley.com/road_stat/Highway_Stats.htm 35/55
3. www.kun.u/ru/news/2022/02/11/nazvany-glavniyye-prichiny-dtp-v-uzbekistan
4. www.gazeta.uz/uz/2022/02/11/selector
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 4 апрелдаги “Автомобиль йўлларида инсон хавфсизлигини ишончли таъминлаш ва ўлим ҳолатларини кескин камайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-190-сонли Қарори. QMMB: 07/22/190/0268-son 02.04.2022-y./lex.uz
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 12 апрелдаги

“Йўл ҳаракати қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги ВМ-172-сонли Қарори. QMMB: 09/22/172/0302-son 13.04.2022-y./lex.uz

Axmedov D.A. Yo‘llarda inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash muammolari

Ushbu maqolada dunyoda va O‘zbekiston Respublikasida sodir bo‘layotgan yo‘l transport hodisalarining statistikasi va tahlili keltirilgan. Yo‘l harakati xavfsizligiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari tahlil qilinib ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yo‘l transport hodisasi, haydovchi, harakat xavfsizligi, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, qoidalar.

Ахмедов Д.А. Проблемы обеспечения безопасности человека на дорогах

В статье изучена мировая статистика дорожно-транспортных происшествий и проведён анализ дорожно-транспортных происшествий по республике Узбекистан. На основании проведённого научного анализа нормативно-правовых актов, связанных с безопасностью дорожного движения, сделаны соответствующие предложения.

Ключевые слова: дорожно-транспортное происшествие, водитель, безопасность движения, нормативно-правовые акты, правила.

Axmedov D.A. Problems of reliable human safety on the roads

The article studied the statistics and analysis of road accidents in the world and in the Republic of Uzbekistan. Legal acts related to road safety are analyzed and evidence-based proposals are given.

Key words: traffic accident, driver, traffic safety, legal acts, rules.

Rasulmetov Mirzaxmat Normetovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i;
Kazimov Sohib Saidovich,
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ta'lim jarayonini tashkil etish boshqarmasining bo'limi boshlig'i

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM OLUVCHILAR BILIMINI NAZORAT QILISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ta'lim oluvchilarning bilimini nazorat qilish va baholash bugungi kunda ta'lim sohasidagi dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim jarayonida ta'lim oluv-chilarning bilimini nazorat qilish masalasi qadimdan mavjud bo'lib kelgan. O'z davrida Arastu va Aflotunlar ham bu masalaga e'tibor qaratib ta'lim jarayonidagi nazoratni o'zini-o'zi nazorat qilish, takrorlash, taqlid qilish qobiliyati deb tushuntirishga harakat qilishgan.

Ya.A.Komenskiy ham bu masalada o'z fikrini bildirib o'tgan va pedagoglarni ta'lim oluvchilarni nazorat qilish va ularni baholashga aql bilan yondashishlari kerakligi, nazorat obyektivligi ta'lim oluvchilarga insonparvarlik munosabati bilan birga bo'lishi kerakligi haqida ogohlantirgan.

Ta'limdagi nazorat tarixini o'rgangan pedagog A.A.Boyko Chor Rossiyasida ta'lim nazoratining har xil turlarini joriy qilishga urunishlar bo'lganini aytib o'tadi. Rossiyada 1894 yilda qabul qilingan "Harbiy bilim yurtlari to'g'risidagi Nizom"da yunkerlarni baholash tizimi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra bitiruvchilar uch toifaga ajratilgan. Shu davrdagi mavjud 12 balli baholash tizimiga ko'ra o'rtacha 10 ball to'plaganlar birinchi toifaga kiritilgan va ularga podporuchik unvoni va unvonda bir yillik staj berilgan. O'rtacha bali 7 va undan yuqori bo'lganlar ikkinchi toifaga kiritilgan va bitirgan kundan podporuchik unvoni berilgan. Birinchi va ikkinchi toifaga kirmaganlarga uchinchi toifa berilgan va ular unter ofitser unvonida, podporuchik unvoniga polk komandirining iltimosnomasiga ko'ra imtihonsiz o'tish huquqi bilan bitirib chiqqanlar. Podporuchik unvonini faqat bitirganlaridan olti oy o'tgandan so'ng yoki vakant joy bo'lgandagina olishlari mumkin bo'lgan. Harbiy kengash tahliliga ko'ra 1877-1899 yillarda birinchi toifa 35% bitiruvchilarga, ikkinchi toifa 10-12% biti-ruvchilarga berilgan. Ikkinchi toifadagi biti-ruvchilarning zaif ofitserlar ekanligi alohida qayd etilgan.

Ko'rinib turibdiki, harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va nazorat qilish masalasiga e'tibor bugun paydo bo'lgani yo'q.

Ta'lim jarayonidagi nazorat bilan bog'liq ba'zi masalalar xorijiy davlatlarda keng o'rganilgan. Jumladan, ta'limda nazoratning zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo'yicha I.V.Robert, A.Ya.Savelev, J.D.Jukovskaya, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlikni baholash metodologiyasi va nazoratning vazifalarini A.V.Barabanshikov, A.I.Guk, E.N.Korotkov, I.A.Lipskiy, M.A.Lyamzin, V.Ya.Slepov, Yu.F.Xudoleyevlar, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilar faoliyatining baholash va nazorat komponentlarini A.K.Bikov, A.I.Kamenev, V.A.Solonitsin, A.D.Lazukin, ta'lim jarayonidagi nazorat vaqtida kompyuter texnologiyalari Ye.V.Zlobin, V.I.Mavrunichev, D.P.Muravlev, A.I.Pirogov, V.I.Popenkov, V.N.Petrenko va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda ta'lim sifatini nazorat qilish masalalari J.X.Qambarova, M.M.Turdaliyeva va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ta'lim oluvchilar bilimining nazorati ta'lim jarayonining asosiy yakuniy elementi hisoblanadi. U ta'limning barcha bosqichlarida turli shakllarda va usullarda amalga

oshiriladi. Ta'lim nazorati keng ma'noda ta'lim oluvchilarning mazkur vaqtdagi psixofiziologik holatlarini inobatga olgan holda ularning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirishni bildiradi. Nazorat harakatlarning natijasini aniqlash, baholash mexanizmi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi natijalarning tugallangan maqsadga mosligini ko'rsatuvchi qaytarma aloqani aniqlashdan iborat. Ko'pincha natijalar kutilayotgan yoki kerakli natijaga mos kelmaydi, bir oz chetga og'ish ro'y beradi. Bu og'ishga ichki va tashqi omillar ta'sir etadi. Pedagogik tizimda bu omillar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, o'quv rejasi va dasturlardagi o'zgarishlar, o'quv jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy maqsadlari o'quv yurtining maqsadlariga to'g'ri kelmasligi, ta'limning yangi tashkiliy strukturasiga va yo'llariga o'tish, o'qituvchilarning o'zgarishi bo'lishi mumkin.

Nazorat rejalarda belgilangan va nazoratning boshlang'ich asosi bo'lgan ta'limning maqsadlari bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, nazorat reja va maqsadlar namoyon bo'lishining bahosi bilan bog'liq. U hamma yerda, ko'zlangan maqsad bilan eri-shilgan natijalar taqqoslanadigan joyda bor. Nazoratning asosiy vazifasi ular o'rtasidagi farqni kamaytirishdir. Harbiy ta'limda nazoratning asosiy maqsadi o'quv nazoratining mazmunini tashkil qiluvchi psixologik va funksional natijalarda ko'rinadi. O'quv jarayonining natijalarga ta'lim oluvchilarning fan bo'yicha egallagan asosan bilim, ko'nikma va malakalar kiradi. Funksional natijalarga pedagogik ta'sirning turli usullari kiradi.

Jarayon natijalarini baholash mezoni norma yoki etalonlar bo'ladi. Norma har qanday o'quv rejasi va dasturining bo'lagi bo'lib, tizimning maqsadlari bilan belgilanadi. Normalarning borligi nazoratning asosi va eng zarur shartidir, chunki u bilan natijalar solishtiriladi. Real natijalarning o'quv faoliyatining etalon va normalari bilan solishtirish nazoratning bir bosqichigina bo'lib, undan so'ng mazmunan baholash va to'g'rilash ro'y beradi.

Harbiy ta'limda normalarni qo'llanishining asosiy sharti ularning aniq bo'lishi va amaliyotda qo'llash imkoniyatining borligi bo'lishi lozim. Ta'lim jarayonida normalarni aniqlovchi misol bo'lib bilimlarni baholash mezonlari xizmat qiladi.

Normalarning boshqa sharti uning amalga oshirilishi mumkinligi, tizimning imkoniyat va elementlari bilan mosligidir. Bu shart berilgan vazifalarni bajara olishning real normalarini ko'rsatadi. Normalar oshirib yoki pasaytirib ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Normalarning oshirilishi o'quv jarayonining ishtirokchilarida xavotir, ishonchsizlik, ishdan bosh tortish kabilarni yuzaga keltiradi. Normalarning pasaytirilishi faollikni falajlaydi. Ikki holda ham umumiy ko'rsatkich pasayadi.

Harbiy ta'lim tizimida normalarni ishlab chiqishda vazifalar, vazifalar bajariladigan sharoitlar ham hisobga olinadi. Sharoitda ozgina o'zgarish ro'y bersa normalar qayta ko'rib chiqilishi lozim. Bu nuqtai na-zardan nazorat reja va normalardan og'ishni aniqlash jarayoni bo'libgina qolmay, balki ularni qayta ko'rish uchun asos hamdir. Obrazli qilib aytganda nazorat - kema yo'nalishini faqat ushlab turmasdan, balki uning yo'nalishini o'zgartiruvchi asos hamdir.

Harbiy ta'limdagi normalar harbiy tizim tajribalari asosida qurilishi kerak va tizimning hozirgi holatining tahliliga tayanishi lozim. Normalar natijalarni tushunti-rib beruvchi asos va kalit bo'la turib, oldingi bajarilishdagi ijobiy shart-sharoitlar, noxush hodisalarga olib kelgan xatolar hisobga olingan holda qayta quriladi va shakllantiriladi.

Nazoratning o'ziga xos xususiyati real natijalarning normalarga mos kelishi haqidagi axborotdir. Qaytarma axborot – nazoratning yana bir elementi hisoblanadi va uning asosida natijaga munosabat o'zgaradi hamda joriy, oraliq va yakuniy maqsadlarga erishish usullari qayta ko'rib chiqiladi. Qaytarma axborot, to'g'ridan-to'g'ri berilayotgan axborotga o'xshab to'liq, obyektiv, aniq, uzluksiz va nazoratning har bir bosqichi uchun o'ziga xos bo'lishi kerak. Sanab o'tilgan talablar nazoratning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Ta'limga tegishli bo'lgan nazoratning quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin: ta'lim maqsadining masshtabiga ko'ra, (strategik, taktik, operativ), ta'limning bosqichlariga ko'ra (boshlang'ich, saralash, oraliq, yakuniy); nazoratlarning o'tkazilishi bo'yicha (bir marotabalik, doimiy); ta'limning tashkiliy shakllariga qarab (individual, guruhiy); o'quv mashg'ulotlarining turlariga qarab (munozara, amaliy ishlar, oraliq nazorat, yakuniy nazorat); nazoratni amalga oshirish turlari bo'yicha (yozma, og'zaki).

Nazorat o'zining normativlik xarakteriga ko'ra individual va birgalikdagi o'quv faoliyatini tashkil qilinishining asosiy omili hisoblanadi. Lekin nazorat boshqaruv tizimining real omili bo'lishi uchun faoliyatning ma'lum tizimini namoyon qilgan holda tashkil qilingan bo'lishi kerak. Demak, nazoratni tashkil qilish muayyan o'quv pedagogik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda nazoratning xilma-xil shakllari, turlari va usullaridan moslarini aniqlash va tanlash bilan bog'liq.

Bugungi kunda oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida nazoratni tashkil qilish metodikasi, kursantlarni bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlashning turli usul va yo'llaridan samarali foydalanilmoqda. Professor-o'qituvchilar ta'lim jarayonida nazoratni obyektivlashtiradigan hamda kursantlar tafakkurining rivojlanish darajasini baholashga yordam beradigan og'zaki so'rov, yozma, amaliy bajarish hamda testlardan foydalanadilar.

Shu bilan birga tadqiqotlarning ko'rsatishicha, nazorat ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatining sifatiga emas, ko'proq o'quv jarayonini tashkil etish va o'qitishga qaratiladi. Turli nazoratlar, odatda, fan bo'limining, o'quv fanining yakunida o'tkaziladi. Nazorat hozirgacha doimiy pedagogik tashxis ko'rinishini olmagan. Bu holatda nazoratning imkoniyatlari torayadi, uni faqat rasmiyatchilik uchun o'tkazishga sharoit yaratiladi.

Ko'pincha, ta'lim jarayonida e'tibor o'quv jarayonining alohida elementlariga qaratiladi va ta'lim oluvchilarning motivlari, o'quv materialini o'zlashtirish va muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikalari e'tibordan chetda qoladi. O'quv jarayonining mazmunini, metodikasi va tashkillashtirilishini to'g'rilash choralari doimiy qaytarma aloqasiz yuzakilik kasb etadi, ta'lim jarayonining sifatini oshishiga olib kelmaydi. Shu sababli mazkur kamchiliklarni bartaraf etish zarur.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantiradigan, har tomonlama tayyor yetuk malakali kadr yetishib chiqishiga yordam beradigan yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilinmoqda. Bu holat o'qituvchilar tomonidan ta'lim oluvchilarning nafaqat o'quv faoliyatini doimiy nazorat qilishni, balki o'zaro nazoratni o'rnatishni talab etadi. Lekin shunga qaramasdan nazorat mansabdor shaxslar-ning va o'qituvchilarning huquqi bo'lib qolmoqda. Ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilarining, kursantlarning o'quv faoliyatining sifati, kursdoshlarining ish samaradorligi haqidagi fikrlari inobatga olinmaydi. Vaholanki, ular birgalikda turli xizmat va xizmatdan tashqari faoliyatda ishtirok etadilar, bir-birlarining kuchli va zaif tomonlarini biladilar.

Professor-o'qituvchilar ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati natijalarini baholashlarida obyektiv yondashuvni kuchaytirish zarur. Bu sohada o'tkazilgan tadqiqotlarda ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning 55% amaliyotda ortiqcha "himmatlilik" bilan ajralib turadilar. Bu holat baholarning oshirib qo'yilishiga olib keladi. Teskari tendensiya holatlari ham bo'ladi, ya'ni ta'lim oluvchiga haddan ortiq yuqori talablar qo'yiladi. O'qituvchilarning muayyan qismi chekkadan qochishga harakat qiladilar va "qoniqarli" yoki "yaxshi" baho qo'yadilar.

Har bir o'tiladigan fan yuzasidan testlar majmuasining shakllantirilishi, turli nazoratlar o'tkazish vaqtida kursantlarning tayyorgarlik darajasini baholashga yordam beradi. Kursantlarning o'quv faoliyatini nazorat qilish tizimida testlar juda kam

qo'llaniladi. Chunki ko'pchilik o'qituvchilar tuzgan testlar test tuzilishiga qo'yiladigan talablarga javob bermaydi.

Bugungi kursantlar kechagi maktab o'quvchilaridir. Shu sababli ularda o'quv dasturlarini mustaqil o'zlashtirish, umumlashtirish, tahlil qilish, o'z o'quv faoliyatini natijalarini baholash ko'nikma va malakalari shakllanmagan. Professor-o'qituvchilar buni anglamaydilar va mashg'ulotlar jarayonida kursantlarning motivatsiya sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlarga, o'zlashtirganlik darajasiga, o'quv faoliyati texnologiyasiga yetarli darajada e'tibor qaratmaydilar. Mazkur muammoning yechimiga kursantlarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning noan'anaviy metodikalari va shu bilan birga reyting tizimi yordam beradi.

Rossiyalik pedagog olima Ye.S.Afanaseva kursantlar orasida o'tkazgan so'rovnomasida 70% kursantlar reyting tizimini qo'llab-quvvatlashlarini bildirishgan. "Reyting tizimining o'quv jarayonini tashkil etishga va uning samarasiga ijobiy ta'siri sezilarlimi?" degan savolga 82% kursant tasdiq javobini bergan. 60% kursant reyting tizimi harbiy-ilmiy faoliyatni, olimpiadalarda, konkurslarda, konferensiyalarda ishtirok etishni, dokladlar, axborotlar tayyorlashni faollashtiradi deb hisoblashgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'nggi yillarda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonida kursantlarning bilim, ko'nikma va malakalarini samarali nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga kursantlarning ta'lim jarayonini nazorat qilishda e'tibor qaratish talab etiladigan sohalar ham mavjud.

Yuqoridagi fikrlarni e'tiborga olib quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- oliy harbiy ta'lim muassasalari rahbariyatiga professor-o'qituvchilarning ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashlarida obyektivliklarini aniqlash maqsadida professor-o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini muntazam ravishda tashxis qilinishini tashkil etish;

- professor-o'qituvchilar bilan o'tiladigan mashg'ulotlarni harbiy-kasbiy tayyorgarlik sifati nazoratining mohiyati, tuzilishi va nazoratning innovatsion usullarini hisobga olgan holda sifat nazoratining pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish mavzulari bilan boyitish;

- yosh o'qituvchilarga harbiy-kasbiy tayyorgarlik sifatini nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish bo'yicha pedagogik faoliyatning asosiy jihatlarini o'zlashtirishda real yordam berishga qodir, kafedralardagi tajribali ustozlarni murabbiy sifatida biriktirish;

- yosh o'qituvchilarning amaliy faoliyatlarini muntazam baholash va ularni tayyorlash jarayoniga o'zgartirishlar kiritish;

- shaxsiy reja tuzishga ijodiy yondashish, unga harbiy-kasbiy tayyorgarlik sifati nazoratini amalga oshirish va tashkil qilishning pedagogik texnologiyalarini egallashni ta'minlovchi tadbirlarni kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афанасьева Е.С. Педагогические пути повышения эффективности познавательной деятельности курсантов военных вузов в ходе изучения гуманитарных дисциплин», Автореф. кандидата пед.наук.М.2011.

2. Бойко А.А.Существующие системы контроля знаний, используемые в вузах//Вестник Московского университета МВД России №7, 2012. С.139

3. Лобанова Е.В. Совершенствование контроля учебной деятельности курсантов военно-учебных заведений. Автореф. кандидата пед.наук.М.2000.

4. Якунин В.А.Педагогическая психология.- Санкт-Петербург. 2000.

Rasulmetov M.N., Kazimov S.S. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim

oluvchilar bilimini nazorat qilishning maqsad va vazifalari

Maqolada ta'lim sohasidagi nazoratning mohiyati, maqsadi va vazifalari, ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni baholash masalasi, ta'lim jarayonida nazoratni amalga oshirishda zarur bo'lgan norma va etalonlar tushunchasining mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, ta'lim sohasidagi nazoratning turli jihatlarini o'rgangan olimlar keltirilgan. Maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish jarayonidagi e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar yoritilgan hamda harbiy ta'lim muassasalaridagi ta'lim nazoratini tashkil qilish yuzasidan takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: harbiy ta'lim, nazorat, bilim, ko'nikma, malaka, norma, etalon, baho, qobiliyat, psixologik natija, funksional natija, nazorat shakllari.

Расулметов М.Н., Казимов С.С. Цели и задачи контроля знаний курсантов высших военно-учебных заведений

В статье разъяснена сущность, цели и задачи контроля знаний, умений и навыков в образовании, рассмотрены нормы и стандарты, необходимые для осуществления контроля образовательного процесса. Проанализированы мнения учёных, изучавших различные аспекты управления процессом образования. Выделены требующие решения вопросы по осуществлению контроля знаний курсантов высших военно-учебных заведений, сделаны закономерные рекомендации по организации контроля учебного процесса в военно-учебных заведениях.

Ключевые слова: военное образование, контроль, знания, умение, квалификация, норма, эталон, оценка, способность, психологический результат, функциональный результат, формы контроля.

Rasulmetov M.N., Kazimov S.S. Goals and objectives of monitoring the knowledge of students in higher military education

The article explains the essence, goals and objectives of control in education, the assessment of knowledge, skills and abilities in education, the concept of norms and standards necessary for the implementation of control in the educational process. There are also scholars who have studied various aspects of education oversight. The article highlights the issues that need to be addressed in the process of monitoring the knowledge of students in higher military education institutions and makes recommendations on the organization of education control in military educational institutions.

Key words: military education, control, knowledge, skill, qualification, norm, standard, assessment, ability, psychological result, functional result, forms of control.

Xodiyev Rustamjon Xamdamovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O'quv uslubiy boshqarma boshlig'ining
o'rinbosari, dotsent

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI O'QITISH VA TARBIYALASH JARAYONINI OPTIMIZATSIYALASHTIRISH

Vatanparvarlik xislati milliy g'ururning taraqqiy etgan varianti bo'lib, Vatan ravnaqi uchun rag'bat paydo qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Milliy g'urur negizida odamlarda Vatanini sevish kayfiyati paydo bo'lib, millati uchun, yurti uchun, ya'ni Vatani uchun fidoyilarcha mehnat qilib, zarur bo'lganda jonini ham fido qilishga tayyor bo'ladi. Buni haqiqiy vatanparvarlik deyiladi.

Shu o'rinda, vatanparvarlik – ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir etadi.

Odamlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish uchun, dastavval, ularda milliy g'uruni paydo qilish kerak. Milliy g'urur bo'lmagan kishida vatanparvarlik tuyg'usini paydo qilib bo'lmaydi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ammo yaqin o'tmishimizda, milliy g'ururni millatchilikka yo'yib, bolalarda milliy g'ururni paydo qilmay turib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirmoqchi bo'lganlar.

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, har tomonlama kamol topgan shaxs, o'z sohasi bo'yicha malakali mutaxassis darajasiga erishadi. Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy-tarixiy psixologik namuna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizmi vazifasini bajaradi. Bu darajadagi shaxsning xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuksak aql-zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik; xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o'z imkoniyatini oqilona baholash va o'zgalarning ham xuddi shunday darajaga erishuvi; sohaga oid talant va salohiyatning amaliy ifodalanishini ta'minlash; har bir ixtisoslikka oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish; ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining yuksak bosqichi bo'lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo'yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egaligi bilan xarakterlanadi; uzluksiz ravishda kashfiyotlarni amalga oshirishga qobillik; har tomonlama rivojlangan shaxsning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb ataladi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his-tuyg'ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat qoidalariga rioya qilish, axloqiy yetuklik, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy teng ko'rinishlariga oqilona yondashishni ta'minlaydi.

Umuman, Kadrlar tayyorlash Milliy modelining boshqa ta'lim modellaridan mutlaqo farqi ham aynan shundadir. Hozirgi kunda ham ushbu jihat islohotlarning yangi bosqichiga oid me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlarni tayyorlash, qarorlar qabul qilishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, ta'lim va jamiyat ajralmasdir!

Bu, mohiyatan, bir tizim. Shuning uchun jamiyatda sodir bo'lgan har bir ahamiyatga molik muammo, so'zsiz, ta'lim makoni holatiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat va jamiyat ta'lim tizimi rivojlanishining kafolatidir, ular ta'lim makonidagi taalluqli siyosatni amalga oshiradi, uning maqsad va vazifalarini belgilaydi, ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydi. Bu «ta'lim – jamiyat» tizimidagi «o'zaro harakatlar oqimi»ning birinchi yo'nalishidir.

Ikkinchi – har tomonlama rivojlangan, hozirgi zamon talablariga moslasha oladigan, jamiyat, davlat va oila oldida turgan o'z mas'uliyatini ongli his qiladigan fuqarolarni tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimida, jahonning rivojlangan mamlakatlari hamjamiyatining teng a'zosi bo'lish, rivojlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qodir har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishdir.

«Ta'lim tizimida barkamol insonni shakllantirish bilan jamiyat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga erishish» – bu davlat, jamiyat, shaxsning bugungi va kelajagi oldida turgan bosh vazifadir.

Ravshanki, kasbiy tayyorgarliksiz, yetuk ma'lumotsiz, ma'naviy va axloqiy boyliklarsiz iqtisodiyotda, ijtimoiy va ma'naviy sohada bir so'z bilan aytganda, davlat va jamiyatda taraqqiyot bo'lishi qiyin. Boshqacha aytganda, hozirga sharoitda milliy mustaqillik g'oyasi va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida ta'limni rivojlantirish, uni takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, dolzarb yo'nalishlarni bajarishga mas'uliyat bilan yondashmoq lozim deb hisoblaymiz.

Davlat va jamiyat ta'lim tizimini isloh qilishning tashabbuskori va kafolatchisi sifatida, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, rivojlangan demokratik davlatlar tajribalari, xalqning madaniy-tarixiy va umuminsoniy qadriyatlari, an'analari, fan, madaniyat, texnika texnologiyalar asosida quyidagilarni belgilab bergandi: *uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining istiqboldagi maqsad va vazifalari, barkamol shaxsni, O'zbekiston fuqarolarining yangi avlodini shakllantirishga qaratilgan; ta'limning davlat, ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlari; ta'lim va kadrlar tayyorlash me'yori va sifatiga talablar; ta'lim turlarining uzluksizligi va uzviyligi; ta'limiy-kasbiy dasturlarni e'tiborga olgan holda ta'lim jarayonini va mazmunini tashkil qilishga bo'lgan talablar; ta'lim tizimini moliyaviy va yetuk pedagog kadrlar bilan ta'minlash, mazkur soha pedagoglari va xodimlarini rag'batlantirishning zarur va yetarli shart-sharoitlari; ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'zaro harakatlarining shakl va mexanizmlari, ularning talab qilingan ta'lim natijalariga erishishdagi huquq va burchlari* va shu kabilar.

Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga mos ravishda mamlakat rivojlanishining hozirgi bosqichida Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturini hayotga joriy etish bo'yicha ta'lim sohasiga nisbatan o'zlarining vazifalarini amaliy jihatdan bajardilar.

Xo'sh, ta'lim tizimi bunga qanday «javob» berdi? U jamiyatga nisbatan o'zining vazifalarini bajarish uchun hamma ishni bajara oldimi?

Umuman olganda, ta'lim sohasi xodimlari jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini ongli ravishda tushunib yetdilarmi, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'lim oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rildimi?

Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotiga faol ta'sir ko'rsatishi, XXI asr xurujlariga barham berish talablariga to'laqonli javob berishi uchun ta'lim jarayonini, zarur holdagi mazmun bilan to'ldirishni qanday tashkil qilish mumkin?

Qo'yilgan savollarga berilgan to'g'ri javob ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, jamiyatning ma'naviy-axloqiy, madaniy yangilanish sur'atlari va yo'nalishlarini, yoshlarimiz ongida mustaqillik g'oyasining shakllanishini belgilaydi.

Umuman olganda, ta'lim sohasi xodimlari va ta'lim tizimi ertangi kun vazifalarini hal qilishga tayyormi? Yaqin istiqboldagi ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

Ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, jamiyatning ma'naviy yangilanishi, milliy istiqlol g'oyasining hayotga faol joriy etilishi mamlakatning ildam qadamlar bilan rivojlanishini ta'minlamoqda.

Shu ma'noda aniq maqsadga qaratilgan dasturlar majmuasida ustuvorlarini aniqlash, ularni amalga oshirgan tadbir va mexanizmlarini ishlab chiqilganligi bugungi kunda o'z natijasini bermoqda. Shu nuqtai nazardan Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturini joriy qilishda, strategik harakatlarning asosiy yo'nalishini belgilab oli-nishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli – bu dinamik hodisa. Davlat va jamiyat rivojla-nishining ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan aniq bosqichida u o'zining asosiy parametrlarini *(ta'limning maqsad va vazifalari, erkin fikrlovchi, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga yo'nalganlik va boshqalar)* saqlagan holda aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashgan holda zaruriy o'zgarishlar kiritildi. Bu hodisalarga olib kelgan sabablarning namoyon bo'lishi esa, o'z navbatida, kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanish jarayonini samarali boshqarish imkonini berdi.

Milliy modelning amaliy tatbiqiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyat va parametrlar tadqiqi kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishi istiqbollarini belgilash imkoniyatini berdi. Bunday holda kadrlar tayyorlash tizimi tarkibi va tuzilmasiga uning rivojlanishi jarayonida o'zgarishlar kiritish imkoniyatlari tug'ildi.

Agar Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturini tatbiq etishning *nihoyasiga yetgan birinchi bosqichi,* asosan, strategik rejadagi vazifalarni hal qilgan bo'lsa, *ikkinchi bosqich* – bu belgilangan ta'lim sifatini ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonining milliy dastur, uning maqsad va vazifalarini bajarishga erishildi.

Ikkinchi bosqichda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi davomiy hamkorlik va birdamliklari ta'minlandiki, bu kadrlar tayyorlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lish bilan birga jamiyat taraqqiyotida inson resursining o'rni va ta'sirining ahamiyatliligini ko'rsatadi.

Insoniyat XXI asrda duch keladigan muammolarni hal qilishi sharoitida ta'limga jamiyatning dunyoqarashini belgilash vazifasi yuklatiladi, u jahon madaniyati qadriyatlari va ideallarini asrab-avaylashga jalb qilinadi. Buning uchun barcha intellektual kuchlarni jalb qilish, ta'lim muassasalari va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatining eng maqbul mahalliy va xalqaro tajribalarini o'rganish va foydalanishni taqozo etadi.

Ta'lim – mamlakatdagi demokratik va bozor iqtisodiyotining amalga oshirilishida asosiy omil va mexanizmlardan biri sifatida ko'rilishi hamda qo'llanilishi lozim.

Muvofiqlashtirilgan vazifalarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda uzluksiz ta'limning davlat, jamiyat va shaxs oldidagi tarixiy vazifasi va majburiyatini bajarishdagi quyidagi ustuvor jihatlarini alohida hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va kursantlarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-kursant faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Demak, o'qitish usullari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni, usullarni o'z ichiga oladi. Ammo har ikkala faoliyat ham hamisha bir xil va bir yo'nalishda bo'lavermaydi. Dars jarayonida o'tiladigan mavzuning xarakteri, mazmuniga qarab, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati turlicha yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

Ta'lim usullari, o'qituvchining o'qitish faoliyati to'g'risida o'tmishda ham, jumladan Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida alohida asoslab berilgan. Abu Nasr Farobiyning «Fan va san'atning afzalligi» risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar mukammal ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi fikrlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga,

mustaqil holda bilim olish yo‘llarini ham ko‘rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga aniq ishontirish kerakligini uqtirgan.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi zamonda, xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo‘lgan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo‘llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchaygan, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun keskin kurash ketayotgan bir sharoitda, Vatan himoyasiga shay turgan yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarimizni hamkorlikda amalga oshirishimiz barchamizdan talab etiladi [1].

Yoshlarimizni jamiyatda yuqori ijtimoiy faol bo‘lishiga, fuqarolarni ayniqsa, harbiy xizmatchilarni xavfsizlikni ta’minlash borasidagi mas’uliyati va javobgarligini oshirishga, ularda Vatanga va burchga sadoqat, mardlik, jasurlik, fidoyilik va halollik kabi insoniy fazilatlarni qaror toptirishga hamda Vatan ravnaqi yo‘lida vijdonan xizmat qilishiga erishish davr talabidir.

Professional armiyani shakllantirish jarayoni, o‘z navbatida, harbiy xizmatchilar shaxsida ma’lum bir individual xususiyatlar mavjud bo‘lishini talab etib, bu harbiy sohada ilm-fan va texnika yutuqlarini tatbiq etish bilan ham bog‘liqdir. Armiyani isloh etish mohiyati haqida so‘z yuritar ekan, Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev “Armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurol-yarog‘lar bilan ta’minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma’naviy jihatdan zaif bo‘lsa, ya’ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin”, - deb ta’kidlagan edilar [2].

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik ishlarini, biz barpo etayotgan farovon va osuda hayotimizni, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ko‘rolmasdan, tanlagan yo‘limizdan qaytarishga, fuqarolarimiz yuragiga vahima va qo‘rquv solish hisobidan ularning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishga, yurtimizda, mintaqamizda o‘z manfaati va siyosatini o‘tkazishga harakat qilayotgan g‘animlardan himoya qilishni yoshlarga ishonib topshirilar ekan, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas’uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o‘zlarini hissalarini qo‘shishlari lozim. Buning uchun esa milliy vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Zero, vatanparvarlik yuksak insoniy fazilat hisoblanib, komillikning eng yorqin jihatlaridan, ma’naviy qadriyatlardan biridir.

Hozirgi kunda dunyoda oldindan aytish qiyin bo‘lgan vaziyat hukm surayotgan murakkab bir sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va totuvlikni ta’minlash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini chuqur anglagan holda, biz 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilgan Harakatlar strategiyasida yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgiladik.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish maqsadida 2018-yil 23-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Mazkur konsepsiya mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamiz qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchini kuchaytirish masalasi ko'rib chiqilgan [4].

Shu o'rinda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari asosan to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagi bolalar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, harbiy xizmatga va ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarishga bo'lgan havasini oshirish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, yoshlarning jismonan sog'lom, kuchli va irodali ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi.

Uchinchi bosqich (16-18 yoshdagi o'smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi.

To'rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

Mazkur Konsepsiyada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Konsepsiyaga ko'ra, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- xalqiga sadoqat, Vatan tarixiga va an'analariga chuqur hurmatda bo'lishni shakllantirish;
- Prezident Farmonlari, Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi hukumati qonun va qarorlarini so'zsiz bajarish lozimligi ruhida tarbiyalash;
- O'zbekiston xalqlari jangovar vatanparvarlik an'analarini targ'ibot qilish, yoshlarda harbiy xizmatga va armiyaga muhabbat, yuksak ma'naviy – jangovar xislatlar, harbiy Qasamyod va harbiy Nizomlarni bajarishda shaxsiy javobgarlik hamda jasurlik, intizomlilik, zukkolik, o'z Vatani himoyasiga doimo tayyor bo'lishni tarbiyalash.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mazkur Konsepsiya yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 24 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo’llagan bayram tabrigi. Xalq so’zi, 2016 yil, 10-son.
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashi majlisidagi “Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimizb va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi nutqi. 2018 yil 10 yanvar.
3. B.X.Tashmatov Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – davlat siyosati markazida – O‘zbekiston Respublikasi MG HTI Axborotnomasi. 2018. 2-son, – 190 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya” - Vatanparvar gazetasining №9 (2760)-soni, 2018 yil 2 mart.
5. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. T.: “O’zbekiston”, 2017. - . 227.
6. Samarov R.S. va b.q. Harbiylik sharafli kasb. – T., «Fan», 2006. – B. 129.
7. Muxamedov O.I., Abdunabiyev A.R. Harbiy xizmatchilarning amaliy o‘yinlari – Muhofaza+, 2008, №6. – B. 26-27.
8. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning yakuniy hujjati – rezolyutsiyasi. Toshkent shahri, 2012 yil 16-17 fevral.
9. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2021 yil 13 yanvar, № 8(7788).
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – B.401.

Xodiyev R.X. O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini o‘qitish va tarbiyalash jarayonini optimizatsiyalashtirish

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini o‘qitish va tarbiyalash jarayonini optimizatsiyalashtirishning nazariy asoslari yortilgan. Bundan tashqari yoshlarda Vatanga, xalqga bo’lgan hurmat, muhabbat va ishonch tuyg‘usini shakllantirish hamda harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy ta’limning o’ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, harbiy ta’lim, kursantlar, tarbiya, harbiy burch va umumharbiy majburiyat, milliy xavfsizlik, kadrlar tayyorlash.

Ходиев Р.Х. Оптимизация процесса обучения и воспитания курсантов высших военных учебных заведений Республики Узбекистан

В статье раскрыты теоретические основы оптимизации процесса обучения и воспитания курсантов высших военных учебных заведений Республики Узбекистан, проанализирована специфика военного образования. Даны рекомендации по формированию любви и уважения к Отчеству и народу, по воспитанию курсантов в духе патриотизма.

Ключевые слова: патриотизм, военное образование, курсанты, воспитание, военный долг, общевоинская обязанность, национальная безопасность, подготовка кадров.

Xodiev R.X. Optimization of the process of training of education of cadets of higher military educational institutions of the Republic of Uzbekistan

The article reveals the theoretical foundations of optimizing the process of training of education of cadets of higher military educational institutions of the republic of Uzbekistan. In addition, the special aspects of military education in the formation of sense of respect, low and trust for the patronymic in the people , as well as education in the spirit of the military patriotism are analysed .

Key words: patriotism, military education, cadets, education, military duty and general military responsibility, national security, preparing cadres.

Ro'ziyev Rustam Djabborovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Fuqaroviy-huquqiy fanlar" kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor;
Muxammadiyev Ayubxon Abduraxmonovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Fuqaroviy-huquqiy fanlar" kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

HUQUQ SOHASIDAGI DISSERTATSIYALARNING SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH – DAVR TALABI

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga [1] nazar tashlasak, uning jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarga mustahkam huquqiy asos, ishonchli tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilayotganligiga amin bo'lamiz. Ushbu hujjatning dasturiy vazifalari qatorida o'z ifodasini topgan birgina ta'lim va ilm-fan yo'nalishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu borada O'zbekistonning barqaror rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifa qilib belgilanganligini ko'rish mumkin. Xususan, mamlakatimizning huquqshunoslik sohasidagi ta'lim va ilm-fan rivojining bugungi sifat darajasi o'zining tarixiy poydevoriga egaligini, mustaqillik yillari davomida to hozirgi kungacha ularni isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilganligini e'tirof etish lozim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilayotgan yuridik ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi ham tubdan isloh qilinib, endigi asosiy vazifamiz – boshlangan yangilanishlarni mantiqiy yakuniga yetkazish, belgilangan dolzarb vazifalarni qat'iyat va izchillik bilan amalga oshirish, shu jumladan dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilish bo'yicha eskicha qarashlar va qoliplarga barham berish hamda joriy etilgan tizimning natijaviyligini ta'minlashdan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lgan oliy ta'limdan keyingi ta'lim, jumladan huquq sohasida jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim va ilm-fan sohalarini sifat jihatidan rivojlantirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yuridik yo'nalishdagi oliy ta'lim va ilm-fan sohalari, shuningdek oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan dasturiy tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillar davomida oliy ta'limdan keyingi ta'limni tashkil etish hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, attestatsiyadan o'tkazishni tubdan yaxshilash bo'yicha bir qator hujjatlar qabul qilinganligini eslab o'tish joiz, deb o'ylaymiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (464-I-son, 29.08.1997y.) "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi (463-I-son, 29.08.1997y.) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958 sonli "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2017 yilning 1 iyulidan boshlab oliy ta'limdan keyingi ta'limning yangi mazmundagi ikki pog'onali tizimi qaytadan joriy etildi. Mazkur hujjatlar qabul qilinishi va ularning ijrosidan ko'zlangan maqsad, birinchidan, ta'lim va fan sohalarining sifatini yaxshilash; ikkinchidan,

oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash; uchinchidan, attestatsiya tizimi samaradorligini oshirish; to‘rtinchidan, ilmiy tadqiqot faoliyatiga yoshlarni keng jalb qilish; beshinchidan, yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo‘ldi. Ushbu huj-jatlarning e’tiborli jihati shunda ediki, ular-ning mazmun-mohiyati mazkur yo‘nalishda tanqidiy yondashgan holda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularni izchillik bilan amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmini yaratish g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgandi.

Mamlakatimizda joriy qilingan oliy ta’limdan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi, uning sifati va samaradorligini oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlantirish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, shuningdek tegishli vazirlik va idoralar hamda oliy ta’lim muassasalari (OTM) va ilmiy-tadqiqot muassasalari (ITM), ilmiy jamoatchilik kengashlari o‘z vakolatlari va funksiyalari doirasida turli darajalarda ishtirok etib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasi 42-moddasida belgilangan “har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi to‘g‘risida”gi qoidaning [2] amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish tartib-tamoyillarini jamlagan, xususan PhD va DSc dissertatsiyalarini tayyorlash, himoya qilish, ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish kabi oliy talimdan ke-yingi ta’limga oid masalalarni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining qarorlari bilan tasdiqlangan “Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash to‘g‘risida”gi (2017 yil 31 may 239/3-sonli), “Ilmiy unvonlar be-rish tartibi to‘g‘risida”gi (2016 yil 28 aprel 224/8-sonli), “Ilmiy darajalar berish tartibi to‘g‘risida”gi (2017 yil 31 maydagi 239/4-sonli), “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tar-tibi to‘g‘risida”gi (2017 yil 31 maydagi 239/6-sonli), “Ekspert kengashi to‘g‘risida”gi (2017 yil 31 maydagi 239/7-sonli) nizomlar qabul qilingan.

Ta’kidlash lozimki, PhD va DSc ilmiy darajalarini olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar asosida dissertatsiya turar ekan, demak, biror bir mavzu doirasida ilmiy tadqiqot ishining boshlanishi, uning yakuniy natijasi sifatida dissertatsiya tayyorlanishi, ommaviy himoya qilinib, buning rasmiy huquqiy tasdig‘i sifatida muayyan ixtisoslik bo‘yicha diplom berilishi belgilangan tartib va talablarga javob berishi kerak. Demoqchimizki, mazkur jarayon anchagina murakkab va davomiyligi bois, ayni vaqtda mas’uliyatli yondashuvni talab qiladi. Bunda dissertatsiya (tadqiqot ishi)ning mavzusi nuqtai nazaridan uning dolzarbligi, jamiyat, ilm-fan va uning ma’lum bir tarmog‘i uchun zarurligi, tadqiqot natijalari va holatlarining ilmiy yangiligi hamda amaliyotga joriy qilinishi, maxsus va qat’iy belgilangan shaklda tayyorlangan ilmiy asar sifatida e’tirof etilishi, shuningdek muallifning layoqati, ilmiy salohiyati va tajribasi kabi qator jihatlar yaxlitlikda namoyon bo‘lishi lozim.

Xo‘sh, shunday ekan, dissertatsiyaning o‘zi nima, uning mazmun-mohiyatini tavsiflovchi jihatlari nimalardan iborat? Jumladan, huquq sohasida bajarilayotgan va himoya qilinayotgan dissertatsiyalarning hozirgi kun talablaridan kelib chiqib, sifatini yanada yaxshilash, saviyasini ko‘tarish va umuman, ularning jamiyatimiz hayotidagi yoxud yuridik fanlarning ilmiy-nazariy rivoji va amaliy zalvorini ta’minlashdagi rolini oshirish uchun nimalarga e’tibor qaratish kerak, degan savollarga javob izlash, mavjud ayrim muammolar yechimi yuzasidan xolis fikr-mulohazalar bildirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Ma’lumki, dissertatsiya (lotincha “dissertatio” - tadqiqot, fikrlash, mulohaza yuritish) - bu ilmiy malakaviy tusga ega bo‘lgan, ommaviy himoya va ilmiy daraja olish uchun maxsus tayyorlangan, qat’iy belgilangan shakldagi ilmiy asar. Boshqacha aytganda, dissertatsiya ilmiy daraja olish

uchun taqdim etiladigan va jamoatchilik oldida yakka tartibda himoya qilinadigan ilmiy asar hisoblanadi. Ensiklopedik lug'atlarda berilgan ta'riflarning umumiy, qisqa izohiga tayanib, "dissertatsiyani ilmiy daraja olish uchun ommaviy himoyaga taqdim etiladigan ilmiy-tadqiqot ishi" deb ham qarash mumkin.

Agar tarixga nazar tashlasak, dissertatsiya va uni himoya qilish dastlab o'rta asrlarda nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning universitetlarida paydo bo'lganligi va keyinchalik 16-17 asrlarda boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshlaganligi haqidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin. O'zbekistonda 1934 yildan boshlab fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun himoya qilinadigan dissertatsiya yangi ilmiy-amaliy xulosa, tavsiyalarni o'z ichiga olishini, dissertant tanlagan mutaxassisligi bo'yicha chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega ekanligini, ayni paytda, fan doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilinadigan dissertatsiya esa fan va texnikaning muayyan sohasidagi katta ilmiy muammo hal qilinganligini, fan va amaliyot rivojiga ulkan hissa qo'shilganligini ko'rsatib berishi lozim bo'lgan [3]. Ko'rinib turganidek, azaldan dissertatsiyaga qator talablar qo'yilganki, ularni bajarish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan.

Yuqorida sanab o'tilgan O'R VM huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Rayosati qarori bilan tasdiqlangan nizomlar qoidalaridan kelib chiqib, dissertatsiyaning mazmun-mohiyati va sifatini belgilovchi asosiy jihatlarini unga qo'yilgan quyidagi rasmiy, huquqiy talablarning tahlili kesimida ko'rib chiqishga harakat qilamiz: ilmiy-tadqiqot shaxsan (bevosita) muallif tomonidan amalga oshiriladi; dissertatsiya yangi ilmiy natijalar va holatlarni o'z ichiga oladi; dissertatsiya tuzilmaviy yaxlitlikni talab qiladi; dissertatsiyada biror-bir ilmiy muammoni hal etishda tadqiqotchining shaxsiy ishtiroki (ulushi) zaruriy unsur hisoblanadi; dissertatsiyada muallif tomonidan berilgan g'oya, yangi takliflar va tavsiyalar aniq, avvaldan ma'lum ilmiy ishlanmalarning tahliliga tayangan holda asoslantiriladi; dissertatsiyada tadqiqotchining takliflari, tavsiyalari va xulosalarining yangiligini asoslovchi ma'lumotlar olingan manbalar ko'rsatiladi; tadqiqot ishining natijalari shaxsan muallif tomonidan ommaviy himoyaga taqdim etiladi va himoya qilinadi.

Yuqorida bayon etilgan talablardan ko'rinib turibdiki, dissertatsiya har qanday ma'ruza, amaldor yoki jamoatchining chiqishlari, axborot tarzidagi xabarlar, ilmiy-ommabop risola yoxud kitobdan farq qiladi. Zero, dissertatsiya fanning aniq bir sohasini rivojlantirish va boyitishga xizmat qiluvchi, tadqiqotchining fanga qo'shadigan hissasini o'zida ifodalovchi ilmiy ijod mahsuli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, dissertatsiyaga (xoh PhD, xoh DSc bo'lsin) qo'l urgan tadqiqotchi o'zini nazorat qilishi, dissertatsiyabop (ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga molik) mavzular bo'yicha ish olib borishi maqsadga muvofiq. To'g'ri, har qanday mavzu bo'yicha ijodiy izlanish olib borish mumkin, lekin ularni dissertatsiya shaklida belgilangan tartibdagi talablarga rioya qilgan holda bajarish talab qilinmaydi.

Dissertatsiya o'z shakl-shamoyiliga ko'ra o'rnatilgan tartib-qoidalarga qat'iy amal qilib, ilmiy tadqiqot ishi bo'lganligi bois, yaxlit, mantiqan bog'liqlikdagi to'g'ri tanlangan ilmiy rukn asosida bajarilishi lozim.

Qonun va qonunosti hujjatlarga binoan dissertatsiya, xususan huquq sohasida bajarilgan dissertatsiya ilmiy malaka ishi bo'lishi, ilmiy sohaga va umuman, yuridik fanni boyitishga ma'lum bir hissa qo'shishi kerak. Har qanday holda ham bu muallif hissasi ilmiy yangilik sifatida qabul qilinishi uchun, avvalambor, to'liq asoslantirilishi va ilgaridan ma'lum bo'lgan ilmiy yechimlar tahlili va tanqidiy yondashuvi bilan birga ilmiy bashoratni aks ettiruvchi dialektik uyg'unlikdagi ilmiy tadqiqot bo'lishi shart. Bilamizki, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalariga erishilganligi, qolaversa, sifati va saviyasini baholashda "natijalari yangi", "ayrim natijalari yangi", "natijalari yangi emas" mazmunidagi tasnifiy mezonlar qo'llaniladi. Bunda agar "ayrim natijalari

yangi" deb xulosalansa, dissertatsiya salbiy baholanishi va dissertantga ilmiy daraja berishda monelik qilishi mumkin deb yuzxotirlikka boramiz. Bir so'z bilan aytganda, andisha qilamiz. Oqibatda, ilmiy kengashda, aksariyat himoya qilingan dissertatsiyalar "natijalari yangi" deb e'tirof etiladi. Xo'sh, bunda "obyektivlik", "shaffoflik" tamoyillari ta'minlanadimi? Yo'q, albatta.

Ta'kidlash lozimki, fanda har doim ham yangi natijalar bo'lavermaydi. Ilm-fan, jumladan yuridik fanlar ilgari yaratilgan yoki amalda mavjud natijalarga ko'z yuma olmaydi, ularni chetlab o'ta olmaydi. Avvalroq yaratilgan g'oya, ishlanmalar va taklif etilayotgan yangiliklar birgalikdagina fanni zamon bilan hamnafas olg'a yurishga undaydi. Kezi kelganda so'z ochsak, hayotda eng ajoyib kashfiyotlar aynan mavjud ilmiy poydevordan qad rostlaganligini ko'ramiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda, himoya qilinayotgan dissertatsiyalarda (xoh PhD, xoh DSc bo'lsin) ayrim natijalari yangi bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham ayrimlari yangi emas, deb haqiqatni aytishimiz kerak. Ilmiy kengash dissertatsiyani uning muallifi ilmiy daraja olishga loyiq va tadqiqotchi avvalgi qilingan xulosalarga tayanib, o'zining nazariy va (yoki) amaliy ahamiyatga molik muhim xulosalarini bergan, deb ijobiy baholasa, e'tiroz bo'lmaydi. Fikrimizcha, ana shunda muayyan darajada obyektivlik ta'minlanadi.

Ilmiy kengash tomonidan dissertatsiya "natijalarining ancha qismi yangi emas" deb tavsiflansa-da, ammo muallif xulosalari fanda muhim yutuqlar qatorida baholangan va ilmiy darajaga loyiq deb topgan vaziyat murakkablik tug'dirishi tabiiy. Bunday holat yuzaga kelganda, OAK dissertatsiyani ko'rib chiqishi jarayonida Ilmiy kengash o'z qarorida turib, uni yoqlash huquqiga ega.

Ta'kidlash kerakki, ayniqsa DSs ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyalar natijalari haqida gap borganda, tadqiqotchi tomonidan konseptual g'oya va nazariy holatlarning ishlab chiqilganligi, ularning yangi yirik ilmiy yutuq yoki yirik ilmiy muammo yechimi sifatida baholanganligi o'ta muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda huquq sohasida tayyorlanayotgan dissertatsiyalar saviyasi va sifatini yuksaltirishda uchrayotgan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish va muammolar yechimini topish xususida fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashish, nafaqat ilmiy doirada, umuman fan-ta'lim sohasida alohida ahamiyatga molik masaladir.

Dissertatsiya yozishga kirishgan har bir tadqiqotchi, dastavval dissertatsiya mavzusini to'g'ri tanlashi va nomini aniqlashtirib olishi lozim. Muhimi, tadqiqotchi ilmiy tadqiqotning maqsadi va vazifalarini hal qiladi, dissertatsiyada nima natijalarga erishadi va himoyaga taqdim etadi, degan savollarga javob izlashi va bir to'xtamga kelishi kerak bo'ladi. Odatda, tadqiqotchi-izlanuvchiga dissertatsiya mavzusi OTM va ITM kafedralari va bo'limlarida tavsiya qilinadi yoki ilmiy rahbar (maslahatchi) tomonidan beriladi. Fikrimizcha, dissertatsiya mavzusini tanlash jarayonida tadqiqotchining shaxsan o'zi kamida 1-2 yil davomida (masalan, magistratura davrida) fanning muayyan sohasida ilmiy izlanish olib borgan bo'lishligi, amaliyotdagi holatni atroflicha o'rganganligi inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Ilmiy rahbar (maslahatchi)ni ham tadqiqotchi o'z tashabbusi bilan mustaqil tanlashi to'g'ri bo'ladi. Keyingina ilmiy rahbar (maslahatchi) bilan kelishgan holda OTM va ITM tegishli kafedra va bo'limlarida muhokamadan o'tkazilib, dissertatsiyaning tuzilishi (rejasi) belgilab olinadi.

Dissertatsiyalarni ishlash uchun tadqiqotchida ilmiy va amaliyot sohasida muayyan tajriba shakllangan bo'lishi muhim. Masalan, bo'lajak tadqiqotchining huquqni muhofaza qiluvchi yoki sud organlarida, qonun chiqaruvchi yoxud ijro idoralarida ish tajribasiga ega bo'lishi. Aks holda, aniq va to'g'ri yo'nalishni belgilab olishi qiyin kechadi, muddat borasida kechikishga olib keladi, tadqiqot davomida ham amaliyot tahlili jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning mazmuni va uning zalvori (ilmiy natijaviyligi) haqidagi birlamchi taassurot aynan kirish qismi va avtoreferat bilan tanishish jarayonida paydo bo'lishligini e'tiborga olsak, dissertatsiyaning

ushbu qismiga alohida e'tibor qaratish kerak. Aslida, dissertatsiyaning holati va sifati uning butun bir yaxlitligida namoyon bo'ladi, bunga e'tirozimiz yo'q. Afsuski, ayrim taqrizchilar, hatto ayrim ilmiy rahbar (maslahatchi)lar faqat dissertatsiya avtoreferatini o'qish bilan cheklanib qo'ya qoladilar. Bunday yuzaki munosabat, mas'uliyatsizlik dissertatsiya sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qilingan ayrim dissertatsiyalar natijalari, taklif va tavsiyalarining, shuningdek ilmiy yangiligining ancha zaifligi ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, dissertatsiyada belgilangan maqsadga erishish uchun shakllantirilgan vazifalarning rejaga nomutanosibligi kabi nuqson va kamchiliklarni, shuningdek dissertatsiya matnlarida, avtoreferatlarda talaygina tahririy, imloviy xatoliklarni uchratish mumkin. Achinarlisi, joylarga, tashkilotlarga yuborilayotgan avtoreferatlarning rus, ingliz tilla-riga tarjima qilib berilgan rezyume qismida ba'zan mazmun jihatidan nomutanosiblikka, shuningdek tahririy xatoliklarga yo'l qo'yilayotganligiga nima deyish kerak. Bu masalaga jiddiy yondashuvni talab qilgan holda dissertant va ilmiy rahbar (maslahatchi), opponentlar, yetakchi tashkilotlar hamda ilmiy kengash va ilmiy-nazariy seminarlarning mas'uliyati va javobgarligini oshirish lozim. Dissertatsiyalarni ilmiy seminarlarga qabul qilish jarayonida ularning mazmunan va shaklan talablarga javob be-rishligiga, qolaversa dissertantning himoyaga tayyorligi holatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyalarining sifatini yuksaltirish maqsadida ularga qo'yiladigan ayrim talablarni qayta ko'rib chiqish zarur. Jumladan, PhD dissertatsiyasi magistrlik dissertatsiyasidan keyingi bosqich ekanligi va ular o'rtasida farq bo'lishi kerakligini hisobga olib, PhD dissertatsiyasida ilmiy yangilik sifatida berilayotgan holatlar sonini kamida 3 ta, DSc dissertatsiyalarida esa kamida 5 ta qilib belgilash, shuningdek PhD va DSc dissertatsiyalarida boblar va paragraflar sonining minimumini qat'iy belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Aks holda, tuzilmasiga ko'ra PhD dissertatsiyasi magistrlik dissertatsiyasidan farq qilmay qoladi (masalan, O'R VM 2015 yil 2 martdagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Magistrlik dissertatsiyasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq magistrlik dissertatsiyasi tuzilmasi: kirish, 6 ta paragraf, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat bo'lishi belgilab qo'yilgan).

Dissertatsiyalarining har bir boblari oxiridagi xulosalar va dissertatsiya yakuniy xulosasining jumlalari, hatto matnlari ham bir xil bo'lib qolmoqda. Bunday takrorlashlarga hojat bormi? Bu dissertatsiya hajmining sun'iy ravishda oshishiga sabab bo'lmaydimi? Fikrimizcha, bunday yondashuv dissertatsiyaning sifati va saviyasiga putur yetkazadi. Xulosa qilib aytganda, yuridik yo'nalishdagi oliy ta'limdan keyingi ta'lim davomida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni yetishtirish jarayonining muhim nuqtalaridan biri sifatida dissertatsiya bu bajarilishi shart bo'lgan, qat'iy ilmiy va rasmiy mezonlarga amal qilib tayyorlanadigan ilmiy-tadqiqot asaridir. Ilmiy maqolalar, metodik va o'quv uslubiy qo'llanmalar, darsliklar dissertatsiya emas, ular uning o'rnini bosa olmaydi. Lekin, dissertatsiya uchun zaruriy unsurlar hisoblanadi. Hatto muallif o'z ilmiy ishlari asosida ilmiy ma'ruza shaklida ommaviy himoya qilganida ham, ma'ruza dissertatsiyaga qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi shart.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar oliy ta'limdan keyingi ta'limning ikki bosqichli tizimida, umid qilamizki, yuridik yo'nalishdagi dissertatsiyalarning sifati va saviyasini yuksaltirishga, ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirishga, olim-mutaxassislar roli va mas'uliyatini yanada kuchaytirishga, milliy huquq sohamiz nufuzini yanada ko'tarishga va huquqshunos olimlarning jamiyatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь ПФ-60-сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й. 06/22/60/0082.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.:"Ўзбекистон", 2019. -80 бет.
3. QOMUS.INFO/onlayn ensiklopediya/ "Д" ҳарфи - Диссертация.

Ro'ziyev R.D., Muxammadiyev A.A. Huquq sohasidagi dissertatsiyalarning sifati va samaradorligini oshirish – davr talabi

Ushbu maqolada oliy ta'limdan keyingi ta'limning rivoji kesimida huquq sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari – dissertatsiyalarni tayyorlash va himoyaga olib chiqishning ba'zi masalalari bugungi kun talabidan kelib chiqib tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, dissertatsiya, ilmiy tadqiqot ishi, ilmiy daraja, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori (DSc).

Рузиев Р.Д., Мухаммадиев А.А. Повышение качества и эффективности диссертационных исследований в области права - требование времени

В данной статье с учётом требований сегодняшнего дня и в контексте развития послевузовского высшего образования проанализированы некоторые вопросы подготовки и защиты научно-исследовательских работ (диссертаций) в области права.

Ключевые слова: высшее образование, послевузовское высшее образование, диссертация, научно исследовательская работа, научная степень, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доктор юридических наук (DSc).

Ruziev R.D., Muxammadiyev A.A. Improving the quality and effectiveness of dissertations in the field of law is a requirement of the time

Based on the requirements of today, this article analyzes some issues of preparing and defending research papers (dissertations) in the legal direction in the context of development after university (higher) education.

Key words: higher education, postgraduate higher education, dissertation, research work, scientific degree, Doctor of Philosophy in Law (PhD), Doctor of Law (DSc).

Alimova Guzal Alisherovna,
lecturer of the University of Public safety of the Republic of Uzbekistan,
doctor of philosophy (PhD) in economical sciences

CONCEPTUAL AND TERMINOLOGICAL ANALYSIS OF RECREATIONAL AND TOURIST ACTIVITIES

Introduction. Today, a widely discussed issue in the scientific community is the identification of the essence, scope and depth of the concepts of «recreation" and " tourism". The reason for such interest and controversy regarding these terms, in our opinion, is the fact that there is no single generally accepted interpretation of these terms.

The development of the world economy and the strengthening of the processes of globalization have created a favorable ground for the development of the tourism industry. In this regard, it should be noted that in the pre-pandemic period, the tourism industry ranked third in the world in terms of income, behind the oil industry and the automotive industry, that is, it accounted for about 5% of world GDP, 30% of world consumer spending, 35% of total investment, 30% of world exports of services, which is about 1 trillion US dollars. [19] In 2019, a record number of tourists visited Uzbekistan - more than 6.7 million tourists. [22]

Despite the rather difficult socio-political situation in the world, the tourism industry continued to develop dynamically and demonstrate resistance to various negative factors. This state of affairs has led to the development of various types of tourism, and, sometimes, when determining the essence when developing programs for the development of the tourism industry, serious problems began to arise in terms of using the conceptual and terminological apparatus of "tourism". In many ways, the rapid development of "recreation" contributed to the confusion. The acceleration of the pace of society's life, stress, overexertion, urban noise, polluted environmental environment and other negative factors have negatively affected the physical and spiritual health of a person, which, in turn, has led to an increase in the need for a person, and society as a whole, to restore strength and health. In this regard, it should be noted that the development and emergence of new types of" recreation "could contribute to confusion and complexity in the application of the terms «recreation" and "tourism". That is why there is an urgent need for a detailed analysis of these terms.

Research methods. The analysis of the conceptual and terminological apparatus of "recreation" and "tourism" is basic and can be regarded as a fundamental issue in the creation and development of "recreation" and "tourism". That is why the study of this issue required a scientific justification. In the process of studying the scope of the concept of "recreation", historical and journalistic methods were applied, which made it possible to review the scientific literature and identify the main trends, the evolution of basic terminological approaches to "recreation" and "tourism" and to determine the factors that contributed to these processes.

To identify current trends in the use of the terms "recreation" and "tourism", a comparative philosophical method was used, which was taken as a basis for solving the following research tasks:

- to determine the essence of the concept of "recreation" ;
- determine the boundaries and scope of "recreation" ;
- analyze whether there are differences between "recreation" and "tourism";
- determine whether "tourism" is part of recreation;
- analyze the essence of the concept of "tourism";
- to analyze the current trends in the development of "recreation" and "tourism",

their impact on changes in the conceptual and terminological apparatus;

- to analyze the impact of COVID-19 on changes in the conceptual and terminological apparatus.

To assess the natural and recreational resources of the mountainous and foothill zones of the Tashkent region, a "point assessment system" was developed. The method of field research revealed the natural and recreational specifics of the Tashkent region.

The results obtained. In the process of studying the conceptual and terminological apparatus of "recreation" and "tourism", the following results were obtained:

1. As a result of the analysis of the concepts of "recreation" and "tourism", we have developed the following periodization of the evolution of these terms:

- in the late 50s and early 60s of the twentieth century, the concept of «recreation" is the restoration of human strength and health in specialized territories;

- in the 70-90s of the twentieth century, "recreation" is a large-scale concept that does not require leaving the place of permanent residence, and "tourism" is part of this extensive concept;

- In the 2000s, the concepts of "recreation" and "tourism" began to be increasingly identified and used as complementary concepts, for example, recreational-tourist or "tourist-recreational";

- The XXI century is caused by the increasing globalization of the economy, which contributes to the sharp growth and development of the tourism industry as an independent branch of the economy. At the same time, the role of "recreation" as the most effective method of restoring a person's physical and emotional health and improving the quality of labor resources is also increasing.

2. The influence of the COVID-19 corona

virus on the terms "recreation" and "tourism" was studied and the following results were obtained:

- the organization of the process of restoring the physical and psycho-emotional health of a person who has suffered the COVID-19 coronavirus requires the creation of completely new types of recreational activities. In this regard, the authors proposed to introduce the term "eco-recreation" into scientific circulation and into practical activity;

-the author's interpretation of the term "ecorecreation" is proposed-as the restoration of the physical and spiritual forces of a person spent in the process of work and everyday life, focused on visiting relatively unaffected by the anthropogenic impact of natural territories.

3. The problematic aspects in the development of recreational activities in Uzbekistan are analyzed. In particular, on the example of the analysis of recreational activities of the Tashkent region, it was revealed:

- widespread excess of the "tourist" and "recreational" capacity of the region;

- it is proved that the excess of the "tourist" and "recreational" capacity can lead to the depletion and destruction of the resources of this activity;

- the fact has been revealed that today protected natural territories are exposed to negative anthropogenic impact;

- the danger of the emergence of a regional environmental problem on the territory of the region has been proved;

- it is reasonable that the development of "ecorecreation" will contribute to the formation of "ecorecreation zones", which, in turn, will become a mechanism for combining two types of use of the territory: environmental and recreational.

Analysis and discussion of the results. The term «recreation" comes from Lat. recreatio – restoration and often, it is understood as the restoration of the physical and spiritual forces of a person spent as a result of active labor or other activity.[23] According to the dictionary "Larousse Dictionnaire de delalanguefransaire", "recreation is a refreshment, recovery after work through a pleasant pastime, exercise, as

well as a pastime that will allow you to distract, relax, have fun".[19] According to N. F. According to Reimers, "recreation" is not only the restoration of the forces spent by a person, but also the process of accumulating new reserves of emotional and physical health. [17]

The term "recreation" has been widely used in scientific and journalistic literature since the late 50s and early 60s of the twentieth century. With the development of the economies of countries and their industrialization, the need to clarify the essence of "recreation" only increased. So, for example, in his works, N. F. Reimers reveals the distinctive aspects of the concepts of "rest" and "recreation" , in his opinion, recreation is that part of the unoccupied time that is aimed at restoring a person's strength in specialized territories, outside of the main place of residence. [21]

Analyzing the scientific literature on the conceptual and terminological features of "rest" and "recreation", we note that Mironenko S. N. and Tverdokhlebov I. T. also tried to bring some clarity to these concepts and place special emphasis on the concept of "free time" because, in their opinion, "recreation" is a complex of relations, as well as phenomena that arise during the use of free time. Recreational, educational, sports, cultural and entertainment activities of people are carried out in specialized territories located outside the settlement. However, it should be noted that these places are not the place of their permanent residence.[13] D. V. Nikolaenko also highlights the differences between «recreation" and "rest", noting that in order for ordinary rest to become «recreation" , it is necessary to leave the limits of your place of residence to restore physical and spiritual strength in specialized territories. [15] It should be noted that "recreation" is a multifaceted and significant concept, but it is not so popular. In this regard, according to A. S. Kuskov[11], «recreation" mostly performs the tasks of applied and empirical research. Unlike "recreation" , "rest" has a permanent character, which, we can say, is associated with the concept of "work". [11]

Today, the term "tourism" is increasingly used as an independent sphere of economic activity. Analyzing the correlation and essence of the terms " tourism"and "recreation" from the position of strong tourism, I would like to note that the confusion and misinterpretation of these terms further strengthens the need for scientific clarity to these terms. For example, A. S. Kuskov identifies social (socio-economic) components and biological components as the main differences between "tourism" and "recreation". [11] He also notes the current trend in the modern Western scientific environment, where the very concept of "tourism" is separated from "pure tourism", "pure recreation", a transitional form – recreational or health-improving tourism and border types of tourism: cultural, educational, sports, religious, which occupy an intermediate position between" pure and recreational tourism, others (trips to the country) are located on the border between recreational tourism and pure recreation.[11] At the same time, A. S. Kuskov believes that «tourism" has a clear economic component, and "recreation" - a social one, for this reason, their volume ratio is not correct in his opinion. In addition, A. S. Kuskov claims that "tourism" is outside the boundaries of recreation. [11]

The opposite opinion is held by D. V. Nikolaenko, noting the fact that the modern trend of labor organization, the pace of life itself unwittingly erase the fine line of differences between "rest" and «recreation" given this, «recreation" and "rest" can be safely considered synonyms. [15] The same opinion was expressed by I. I. Dedyu, saying that "rest" and «recreation" are identical concepts and are synonyms. [8]

It should be noted that "recreation" is such a broad concept, and it needs a classification of the scope of its interpretation. The most understandable and specific classification of the definition of "recreation" , in our opinion, was given in the tourist dictionary by I. V. Zorin and V. A. Kvartalnov. They identified six

interpretations of the term «recreation" : [10]

- Extended recovery of physical, emotional, psychological and intellectual forces of a person.
- Gaming, entertainment and other forms of restoration of physical, emotional, psychological and intellectual forces of a person.
- An active type of recreation that allows you to quickly restore both physical activity and the psychoemotional state of a person.
- Holidays, breaks at work or changes in educational institutions;
- Organized recreation, involving visits to specialized recreational institutions or territories.
- Medical recreation - restoration of health in medical institutions, etc.

Often, the term «recreation" in the scientific literature is used in combination with the term "tourism" – "recreational-tourist".

So what is the place of "tourism" in this industry?

Before we begin the terminological analysis of" tourism", we will determine who is "tourist" is. In our opinion, the most clear definition of this term was given by V. Smith and M. In other words, namely, a "tourist" is a temporarily vacationing person who travels away from home for a change of scenery.[17] Although, in our opinion, temporary rest is supported by a material component, because when leaving the place of permanent residence, a tourist consciously and voluntarily, depending on the type of tourism chosen by him, bears transportation costs, the cost of purchasing tickets to visit historical attractions, theaters, cinemas, etc.The Swiss scientist K. Kaspar considers the "tourist" as a subject of tourism. A tourist is a person who directly consumes the tourist services offered to him. K. Kaspar identifies the objects of tourism, namely tourist regions, enterprises and organizations. [12]

The Law of the Republic of Uzbekistan "On Tourism" clearly specifies the status of a "tourist" as an individual visiting the country (place) of temporary stay, who is not engaged in activities related to obtaining income from sources in the country (place) of temporary stay for a period of twenty-four hours to twelve consecutive months or carrying out at least one overnight stay in the country (place) of temporary stay. [1]

It should be noted that there is another concept that is closely related to the concept of "tourism" - this is "leisure", because it is "leisure", its duration and frequency that are a significant factor in motivating a person for a tourist trip. In our opinion, in its essence, "leisure" is a period of time during which a person is not engaged in daily work, worries, labor activity and is not associated with enrichment and income. Although Gavrisheva E. A. gives the following definition of the term "leisure":- "The time remaining for an individual after work, sleep and performing other tasks necessary to ensure a normal life", thereby she puts time restrictions on "leisure" as a short-term phenomenon, which, in our opinion, does not fully correspond to the essence of this term. [7] Of course, we do not deny the fact that "leisure" can be interpreted both in a narrow sense, as a short-term phenomenon and in a broad sense as a weekend time, during which a person can visit natural, historical sights, travel outside of their permanent place of residence.

It should be noted that in the age of the development of the World economy, the strengthening of cooperative ties, the globalization of the economy, the role of the tourism industry in the global GDP is increasing. The increasing influence of the tourism industry on the economies of countries has also contributed to changes in the terminological interpretation of «tourism".

For the first time, the definition of tourism was given by professors of the University of Bern, K. Krapf and V. Hanziker. [23] In their opinion, tourism is "a series of phenomena and relationships that arise as a result of people's travel, as long as it does not lead to a permanent stay and is not associated with obtaining any benefit. [6]

"tourism" in its content is a deep and multifaceted concept, therefore, there are

Buyuk Britaniyada ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida bir qator ilg'or ish uslublaridan foydalaniladi. Jumladan, ushbu davlatda **16 ta** davlat idoralari vakillaridan iborat Terrorizmni tahlil qilish birlashgan markazi tashkil etilib, markaz o'z faoliyati davomida ichki va xorijdagi xalqaro ekstremizm va terrorizmga oid barcha razvedka ma'lumotlarini ilmiy tahlil qilib boradi hamda tahdidlarni baholaydi. Shuningdek, ushbu sohadagi tendensiyalar, ekstremistik va terroristik tarmoqlar, ular-ning kuch vositalari hamda joylashuvi, maqsad va harakatlari to'g'risida batafsil hisobotlarni taqdim etadi [12]. Markazning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritilgan:

– milliy xavfsizlikni josuslik, terrorizm va sabotaj tahdidlaridan, xorijiy davlatlar agentlarining harakatlaridan hamda parlament demokratiyasini siyosiy, sanoat yoki zo'ravonlik yo'li bilan ag'darish yoki buzishga qaratilgan harakatlardan himoya qilish borasida axborotlarni baholab borish;

– iqtisodiy farovonlik va britaniyaliklarni yuzaga keladigan tahdidlardan himoya qilish;

– politsiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish hamda fosh etish bo'yicha faoliyatini tahliliy qo'llab-quvvatlash.

Markaz rahbari Britaniya kontrazvedka davlat idorasining Terrorizmga qarshi kurash bo'limi bosh direktoriga hisobot berib, ushbu hisobot o'z navbatida hukumat huzuridagi Birlashgan razvedka qo'mitasiga taqdim etiladi. Ushbu model ekstremizm tahdidi bo'yicha razvedka ma'lumotlarini tahlil qilishning nufuzli va samarali mexanizmini taqdim etdi.

2012 yilda **Germaniya Federativ Respublikasi**ning Kyoln shahrida **40 ta** federal va shtat departamentlari ekspertlaridan iborat Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash markazi tashkil qilingan [13]. Markaz o'z faoliyati davomida

ekstremizmning barcha turlariga, jumladan, partiyalar, chet elliklar o'rtasida ekstremizm va josuslikka qarshi kurashish maqsadida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish, tezkor choralar ishlab chiqish, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Markaz faoliyatini Jinoyat ishlari bo'yicha federal idora va Konstitutsiyani himoya qilish federal idorasi muvofiq-lashtiradi. Uning ishiga politsiya, Federal razvedka xizmati, bojxona xizmatlari, prokuratura, Migratsiya va qochqinlar bo'yicha federal idora va harbiy kontrrazvedka xizmati ham jalb etilgan.

Rossiya Federatsiyasida "Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda situatsion yondashuv" doimiy seminari ishtirokchilarining ilmiy izlanishlari natijalarini sinovdan o'tkazish maqsadida, RFda Immanuyel Kant nomidagi Boltiq federal universiteti huzurida 2019 yilda Terrorizm profilaktikasi o'quv-metodik markazi tashkil etilgan [14].

Markazning asosiy maqsadi – ushbu sohadagi kriminogen vaziyatning rivojlanishini hisobga olgan holda, ekstremizm va terrorizm mafkurasiga qarshi kurashishning dolzarb masalalari bo'yicha o'quv, uslubiy va ilmiy materiallarni ishlab chiqish belgilangan. Bugungi kunda Markaz o'z faoliyati davomida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi 1) Rossiya Federatsiyasi hududida ekstremizm va terrorizm mafkurasi holati va uning rivojlanish tendensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni monitoring qilish; 2) ekstremizm va terrorizm mafkurasiga qarshi kurashishning dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy, uslubiy va o'quv materiallarini ishlab chiqish; 3) Rossiya Federatsiyasi hududida va xorijdagi turli oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning hozirgi shakllarini tahlil qilish; 4) ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ilg'or tajribalarni o'rganish; 5) davlat va munitsipal xizmatchilar, shuningdek terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etuvchi huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari malakasini oshirish va boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda terrorizm va ekstremizm muammosi bir qator xorijiy ilg'or ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan bevosita o'rganilib, ushbu sohada hukumat tomonidan ko'rilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlar ilmiy asoslangan holda belgilab berilmoqda. Shuningdek, faoliyati barqaror moliyalashtiriladigan tadqiqot markazlari, ushbu sohada har tomonlama chuqur ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borib, yuqori natijalarga erishmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro terrorizm va ekstremizm faoliyati faol bo'lganligi, kelgusida ham ushbu faollik saqlanib qolishini hisobga olgan holda, ilg'or xorijiy tajribalardan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligiga tahdidlarni muntazam o'rganish va ushbu sohadagi tahdidlarga qarshi ilmiy asoslangan choralarni ishlab chiqish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi qoshida xavfsizlik masalalari **ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazini** tashkil qilish hamda ushbu markazni sohadagi ekspertlar, tajribali xodimlar va tadqiqotchilar bilan jamlash;

ikkinchidan, Respublikadagi mavjud tadqiqot muassasalarining *(Strategiya va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazida, IIV huzuridagi Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi va boshqa)* terrorizm va ekstremizmga oid ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini yangi tashkil qilingan markaz faoliyati bilan muvofiqlashtirish;

uchinchidan, markazda terrorizm va ekstremizmga oid elektron ma'lumotlar bazani shakllantirib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tadqiqot markazlari va boshqa manfaatdor idoralar bilan o'zaro ma'lumot almashishini yo'lga qo'yish;

to'rtinchidan, terrorizm va ekstremizm muammolarini o'rganishga ixtisoslashgan xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri xalqaro hamkorlik o'rnatish va ularning tadqiqot natijalarini doimiy ravishda o'rganib borishni tashkil etish;

beshinchidan, markaz tomonidan har yili ekstremizm va terrorizm tahdidlarini hamda unga imkon beruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlar dasturi va mavjud xavflar to'g'risidagi milliy ma'ruzasini ishlab chiqish;

oltinchidan, ilg'or xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda, har yili terrorizm va ekstremizm muammolariga bag'ishlangan konferensiyalarni tashkil qilish.

Mazkur taklif va mulohazalarni amaliyotga joriy qilish terrorizm va ekstremizm tahdidlarini ilmiy prognozlash, ularga qarshi kurashish yo'nalishida qo'llanilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga hamda mavjud kuch-vositalarni samarali qo'llanilishiga sharoit yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.economicsandpeace.org/.
2. gtmarket.ru/ratings/global-terrorism-index/info
3. https://icct.nl.
4. https://icct.nl/latest/
5. https://www.ict.org
6. https://ru.wikipedia.org/wiki
7. http://wam.ae/ru/details/1395302700964
8. http://wam.ae/ru/details/1395302709231
9. https://hedayahcenter.org/programs/national-action-plans-to-prevent-and-counter-violent-extremism/
10. https://hedayahcenter.org/strive-global-in-focus-hedayah-presents-the-strive-global-program/
11. https://hedayahcenter.org/programs/eu-strive-global/
12. Базаркина Д. Борьба с терроризмом в Великобритании (коммуникационный аспект). https://cyberleninka.ru /article/n/borba-s-terrorizmom-v-velikobritanii-kommunikatsionnyy-aspekt
13. https://www.dw.com/ru.
14. https://kantiana.ru/upload/uf/812/mrnrwed1ll1f32uckb31crb8d9m2t7qp/Polozhenie-ob-Uchebno_metodiches kom -tsentre-po-profilaktike-terrorizma.pdf

Nurmatov M.M., Elov A.A. Ekstremizm va terrorizm muammolarini ilmiy tadqiq etishda ilg'or xorijiy tajribaning ayrim masalalari

Maqola terrorizm va ekstremizm muammolarini bevosita o'rganadigan xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari, ularning ushbu sohadagi ilg'or tajribalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ekstremizm, terrorizm, huquqbuzarlik, tahdid, jinoyat, ilmiy, tadqiqot, sentr, institut, radikalizm.

Нурматов М.М., Элов А.А. Некоторые вопросы передового зарубежного опыта научного изучения проблем экстремизма и терроризма

В статье рассмотрен опыт зарубежных исследовательских учреждений, непосредственно изучающих проблемы терроризма и экстремизма, по результатам изучения сделан обзор их передового опыта в этой сфере.

Ключевые слова: экстремизм, терроризм, преступление, угроза, наука, исследование, религия, центр, институт, радикализм.

Nurmatov M.M., Elov A.A. Some issues of advanced foreign experience in the scientific study of the problems of extremism and terrorism

The article is devoted to foreign research institutions that directly study the problems of terrorism and extremism, their best practices in this area.

Key words: extremism, terrorism, crime, threat, crime, science, research, center, institute, radicalism.

Urmonov Jahongir Jaloldinovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Iqtisodiy fanlar" kafedrasi boshlig'i,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI YARATISH MASALALARI

Global inqiroz va pandemiya sharoitida mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy himoya qilish va bandligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu esa, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga bevosita bog'liqdir.

Jahon miqyosida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishda, shu jumladan, insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rilmoqda [2]. Bu esa eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xom ashyo tovarlari narxining pasayishi va konyunkturaning yomonlashuvini keltirib chiqardi.

Global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta'sir qilmoqda, bu esa, o'z navbatida, ushbu holatning salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha samarali oldini oluvchi choralar ko'rishni talab qiladi. Bunda turizm, transport, farmatsevtika va to'qimachilik sanoati kabi respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va ularning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi [2]. Shunday ekan mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy e'tiborni kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xavfsizlik ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u butun insoniyat, davlat yoki iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi, rivojlanishi uchun noxush, salbiy, zararli ta'sirlardan, xavf-xatarlardan saqlanish, himoyalanish holatini ifodalaydi. O'rganishlar ko'rsatmoqdaki, "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi xususida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar va yondashuvlar mavjud bo'lib, ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi.

Milliy ensiklopediyada "Iqtisodiy xavfsizlik" - mamlakat, hudud, firma, kompaniyaning iqtisodiy inqirozga uchrash xavfidan himoya qilish bo'yicha ko'radigan chora-tadbirlari majmui deb ta'rif berilgan [4].

Professor X.P.Abulqosimov ta'kidlaganidek, milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uni ta'minlashning eng muhim sharti yoki omili, ko'rsatkichi iqtisodiy xavfsizlikdir. "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi eng umumiy tarzda mamlakatning moddiy va nomoddiy, qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi [5].

A.Proxojev va M.Kornilovlar mazkur tushunchani iqtisodiyotning progressiv rivojlanishi va normal darajada amal qilishining muhim sharti, iqtisodiyot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanishi deb tavsiflaydilar. Ularning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hayotiy muhim manfaatlar, shaxs, jamiyat va davlat mavjudligi hamda ularning progressiv rivojlanish imkoniyatlarini ishonchli tarzda ta'minlaydigan ehtiyojlarning qondirilishi demakdir [9].

T.E.Kochergina "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasiga iqtisodiy tizimning o'zini-o'zi o'zgarmas hajmlarda, doimiy miqdoriy va sifat tavsiflarda takror ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lgan holati deb ta'rif beradi [8].

D.V.Gordienkoning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik milliy xo'jalikning ichki va tashqi

tahdidlardan himoyalanish holati bo'lib, bu holat jamiyatning izchil rivojlanishini, ichki va tashqi salbiy omillar ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda ham iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi [7].

X.P.Abulqosimovning fikricha, "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi, deb ta'rif berilgan [6].

Ushbu fikrlarga asoslangan holda "iqtisodiy xavfsizlik" – aholi (shaxs), tadbirkor, korxona, mintaqa va mamlakatning iqtisodiy inqirozga uchrash xavfidan himoya qilish bo'yicha ko'radigan chora-tadbirlari majmui, deb ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy xavfsizlik davlatning **milliy xavfsizligini** asosiy tashkil etuvchilaridan biridir va mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlari kafolatlanishi va uni ta'minlashning yo'llari, vositalari va usullariga asos soluvchi qarashlarning yig'indisidir. Konseptual ko'rinishda u davlatning iqtisodiy potensialining holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillarini tahliliga asoslangan. Davlatning xavfsizligi kuchsiz va samarasiz iqtisodiyotda ta'minlanishi mumkin emas, ayniqsa globallashuv jarayonidagi ijtimoiy nizolarga to'la jamiyatda, chunki hammasi o'zaro bog'langan va biri ikkinchisini to'ldiradi [9].

Iqtisodiyot subyektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: shaxsning iqtisodiy xavfsizligi, korxonaning (firma) iqtisodiy xavfsizligi va davlatning iqtisodiy xavfsizligi [10].

Professor X.P.Abulqosimov tomonidan iqtisodiy xavfsizlik shakllarini ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol, moliyaviy, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy sohalar bo'yicha turkumlagan [6].

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli subyektlariga tegishli bo'lib, ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik va davlat korxonalari, milliy iqtisodiyot va davlat. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik ichki va tashqi omillar natijasida paydo bo'ladi [10].

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik - tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir. **Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik** - mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshliligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi [9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha tashqi iqtisodiy xavfsizlik sohasiga bugungi kunda guvoh bo'lganimizdek, global iqtisodiy inqirozlar, jahon bozorida tabiiy resurslar xususan neftning narxi tushib ketishi hamda yuqumli kasalliklar koronavirus pandemiyasini ham kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda biznes yuritish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va kafolatlarini mustahkamlash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida "makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish" kabi chora-tadbirlar belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasida samarali tarzda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli yurtimizda kichik va xususiy biznes subyektlari ikki barobar ko'payib, sohada **1 million 400 mingta** yangi ish o'rni yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish maqsadida **16 ta qonun, 100 dan**

ortiq qarorlar qabul qilindi. O‘tgan bir yil davomida litsenziya va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartibi soddalashtirildi hamda ularni berish muddatlari qisqartirildi. Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida barcha tekshiruvlar uchun moratoriy e’lon qilindi. Shuningdek, o‘zini o‘zi ish bilan band qilgan aholi uchun qulay sharoit yaratish natijasida bir yilda **500 ming nafar** fuqaro ro‘yxatdan o‘tib, faoliyatini qonuniy asosda yo‘lga qo‘ydi [11].

“Biz milliy iqtisodiyotimizda haqiqiy bozor munosabatlarini joriy etish, shu asosda mamlakatimizni taraqqiy ettirish uchun tadbirkorlarga bundan buyon ham barcha sharoitlarni yaratib beramiz. Nega deganda, **tadbirkor – iqtisodiyotning, islohotlarimizning asosiy tayanchi va lokomotividir**” [12].

Tadbirkorlik sohasidagi mana shunday yondashuv natijasida Jahon bankining **“Biznesni yuritish”** xalqaro reytingida O‘zbekiston besh yil ichida **141-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarildi**. Bu bizning mamlakatimizga ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan **20 ta mamlakat** qatoriga kirish imkonini berdi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonni 2010-2020 yillarda "Biznes yuritish" jahon reytingidagi umumiy darajasi [18].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga muvofiq, Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tarkibi tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Adliya vazirligi Kengashning ishchi organlari etib belgilandi. Shuningdek, Ijtimoiy-iqtisodiy 14 ta va siyosiy-huquqiy 5 ta jami 19 turdagi reyting va indekslarning Kengash ishchi organlari bo‘yicha taqsimoti hamda **2020-2030** yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlari **(KPI)** taqsimoti tasdiqlandi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida, “Iqtisodiy erkinlik indeksi” reytingida O‘zbekiston **26 pog‘onaga** ko‘tarilib, 2020 yilda **114-o‘rinni**, “Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi” 2020 yilgi reyting natijalariga ko‘ra 152 davlat orasida **92-o‘rinni** egalladi. Bu bizning mamlakatimizga ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan **20 ta mamlakat** qatoriga kirish imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro indekslardagi reytingi [14].

№	Indekslar nomlanishi	Joriy holat	2021	2022	2030
1.	**“Biznesni yuritish” indeksi** (Doing Business Index)	**69,90 ball (69-o‘rin)**	**72,43**	**77,8**	**89,36**
2.	**Iqtisodiy erkinlik indeksi** (Economic Freedom Index)	**57,2 ball (114-o‘rin)**	**57,2**	**63,6**	**82,3**
3.	**“Inson kamoloti” indeksi** (Human Development index)	**0,710 ball (108-o‘rin)**	**0,720**	**0,740**	**0,820**
4.	**“Raqobatbardosh sanoat unumdorligi” indeksi** (Competitive Industrial Performance Index)	**2020 yilgi reyting natijalariga ko‘ra 152 ta davlat orasida 92-o‘rin**			

Jahon bankining “Doing Business” 2020 yangi har yillik hisobotida O‘zbekiston 7 o‘rin yuqoriga ko‘tarilib dunyoning 190 mamlakati orasida 69-o‘rinni egalladi. Bu bizning mamlakatimizga ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan 20 ta mamlakat qatoriga kirish imkonini berdi (1-rasm).

Jahon banki ekspertlari “Biznesni yuritish” hisobotning 10 indikatoridan 5 tasida O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilaganligi e’tirof etilgan:

- **Biznesni boshlash (Q4 pog‘ona).** Davlat xizmatlarini ko‘rsatish markazlari orqali kompaniyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini joriy etish va kichik korxonalar uchun bosma nashrga bo‘lgan talabni bekor qilish orqali biznesni boshlash uchun sarf-xarajatlar va vaqtni qisqartirish;
- **Qurilish uchun ruxsat olish (+2 pog‘ona**). Aloqa va boshqa ruxsatnomalarga ulanish uchun texnik shartlarni olish narxini pasaytirish;
- **Investorlarning huquqlarini himoya qilish (+27 pog‘ona).** Asosiy korporativ qarorlarni qabul qilishda aksiyadorlarning huquqlari va rolini kengaytirish, mulkchilik va boshqaruv tuzilmalarini belgilash va korporativ shaffoflikni talab qilish orqali minoritar investorlarning himoyasini kuchaytirish;
- **Tashqi savdo (+13 pog‘ona).** Xavflarni baholash va import hujjatlariga talablarni soddalashtirish asosida bojxona tekshiruvi mexanizmini joriy etish orqali tashqi savdo tartib-qoidalarini soddalashtirish;
- **Shartnomalarning bajarilishi (+19 pog‘ona).** Ixtiyoriy mediatsiya to‘g‘risida yagona qonun qabul qilinishi orqali shartnomani bajarishni soddalashtirish, shuningdek, nizolarni mediatsiya orqali hal qilishda taraflarni rag‘batlantirish va mahalliy tijorat sudlarida natijalarni baholash hisobotlarini nashr etish.



2-rasm. O‘zbekistonni xorijiy mamlakatlar ichida 2020 yildagi "Biznes yuritish" reytingi [13].

Jahon banki guruhi "Biznesni yuritish 2020" hisobotida biznesni yuritish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha dunyo reytingida Yangi Zelandiya peshqadamlikni saqlab qoldi, Singapur ikkinchi o'rinni egalladi. Gonkong uchinchi o'rinni, Daniya to'rtinchi pog'ona egalladi. Keyingi o'rinlarda Janubiy Koreya, AQSh, Gruziya, Buyuk Britaniya, Norvegiya va Shvetsiya egallagan (2-rasm).

Agar reytingdagi pozitsiyalarni MDH mamlakatlariga nisbatan ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'rinlar quyidagi tarzda joylashdi: Gruziya (7-o'rin), Litva (11-o'rin), Estoniya (18-o'rin), Latviya (19-o'rin), Qozog'iston (25-o'rin), Rossiya Federatsiyasi (28-o'rin), Ozarbayjon (34-o'rin), Armaniston (47-o'rin), Moldova (48-o'rin), Belarus Respublikasi (49-o'rin), Ukraina (64), O'zbekiston (69-o'rin), Qirg'iziston Respublikasi (80-o'rin), Tojikiston (106-o'rin).

O'zbekistonda 2020 yilda reytingdagi quyidagi indikatorlarda o'sish kuzatildi: «Korxonani ro'yxatga olish» +4 (12-dan 8-ga), «Shartnoma majburiyatlarini bajarilishi» +19 (41-dan 22-ga), «Qurilishga ijozat olish» +2 (134-dan 132-ga), «Minoritar investorlarni himoyalash» +27 (64-dan 37-ga), «Xalqaro savdo» +13 (165-dan 152 ga), indikatorlari bo'yicha vaziyat yaxshilangan (2-jadval).



3-rasm. O'zbekistonni MDH mamlakatlar ichida 2019-2020 yildagi "Biznes yuritish" reytingi [13].

Shuningdek, quyidagi indikatorlarda pastlash kuzatildi: «Elektr ta'minoti tizimiga ulanish» – minus 1 punkt (35-dan 36-ga), «Mol-mulkini ro'yxatga olish» minus 1 punkt (71-dan 72-ga), «Soliqqa tortish tizimi» minus 5 punkt (64-dan 69-ga), «To'lovga layoqatsizlikka ruxsat berish» – minus 9 (91-dan 100-ga), «Kreditlar olish» – minus 7 (60-dan 67-ga) va «Shartnomalar ijrosini ta'minlash» – minus 6 (32-dan 38-ga).

2-jadval

O'zbekistonda 2010-2020 yillarda "Doing Business" reytingida tadbirkorlikka qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo'yicha shart-sharoitlar darajasi [13].

№	Indikatorlar	Yillar				
		DB-2010	DB-2015	DB-2018	DB-2019	DB-2020
	"Doing Business" reytingi	**150**	**141**	**74**	**76**	**69**
1.	Korxonalarni ro'yxatga olish	92	64	11	12	8
2.	Qurilishga ruxsatnoma berish	142	149	135	134	132
3.	Energiya ta'minotiga ulanish	95	108	27	35	36
4.	Mol-mulkini ro'yxatga olish	133	113	73	71	72

5.	Kreditlar olish	135	105	55	60	67
6.	Minoritar investorlar himoyasi	119	87	62	64	37
7.	Soliqqa tortish tizimi	178	117	78	64	69
8.	Xalqaro savdo (tijorat)	174	158	168	165	152
9.	Shartnoma majburiyatlarini bajarilishi	44	32	39	41	22
10.	To'lovga qobiliyatsizlikni hal qilinishi (biznesni tugatish)	125	75	87	91	100

Tadbirkorlik subyektlarini internet tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazishning soddalashtirilgan tartibini amaliyotga joriy etish va **"yagona darcha"** tizimini yanada takomillashtirish tufayli oxirgi besh yilda korxonani ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha sezilarli o'sish qayd etildi (8-o'rin, 56 pog'onaga o'sdi).

Respublikada iqtisodiyotni moderni-zatsiyalash sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, xalqaro amaliyotga muvofiq tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan soliq hisobotlarini soddalashtirish va taqdim etish davriyligini qisqartirish bo'yicha bir necha bosqichda chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchi bosqich: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyuldagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'isida»gi PQ-100-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, 2005 yil 1 iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan soliqlar, yig'imlar, ajratmalar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha barcha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga **har oyda** taqdim etish o'rniga **har chorakda** taqdim etishga o'tkazildi. Buning natijasida soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi 10 martaga kamaytirilib, soliq hisobotlari soni **373300 tadan 37300** taga qisqardi.

Ikkinchi bosqich: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyundagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4453-sonli Farmoniga muvofiq, 2013-yildan e'tiboran 12 turdagi soliq hisobotlari va 2 ta moliyaviy hisobot shakllarini qisqartirilishi belgilandi va soliq organlariga taqdim etiladagan 11 turdagi soliq hisobotlari va boshqa ma'lumotlari birlashtirilib, 5 taga tushirilgan edi. Buning natijasida, soliq hisobotlari yirik korxonalarga **2,3 martaga** va kichik korxonalarga **1,7 martaga** qisqartirildi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq hisobotlarini bosqichma-bosqich elektron tarzda taqdim etish tartibi belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 apreldagi PF-4609-sonli Farmoniga muvofiq, 2014 yilning 2-choragida elektron raqamli imzo kaliti sertifikatining amal qilish muddatini **12 oydan 24 oygacha** uzaytirildi. 2013 – yildan boshlab bosqichma bosqich amaliyotga tatbiq etilib hozirgi kunda xo'jalik subyektlari o'z hisobotlarini 100% elektron tarzda topshirmoqdalar.

Uchinchi bosqich: Soliq konsep-siyasiga ko'ra 2019 yil 1 yanvardan yuridik shaxlar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash tartibi o'zgartirilganligi munosabati bilan soliq-hisob kitoblarni yuritish va taqdim etish shakllarida o'zgartirish kiritishni taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligining 2019 yil 7 yanvardagi "Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-5, 2-sonli qaroriga asosan soliq hisobotlarining yangi shakllari tasdiqlandi. Buning natijasida 2018 yilda amalda bo'lgan 17 ta soliq turi bo'yicha soliq hisob-kitobi o'rniga 14 ta hisob-kitob taqdim etilishi, shuningdek soliq bazasi bir xilligi tufayli ularning ayrimlari bo'yicha ilovalari soni bekor qilinib, sezilarli darajada qisqartirildi. Xususan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi soddalashtirilib, 37 qator va 16 ta ilovadan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi hisob-kitob shakli 18 qator va 8 ilovaga, ya'ni 2 barobarga kamaytirildi.

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va yagona ijtimoiy to'lov hisob-kitobi birlashtirildi.

- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisobotlarining yangi shaklidagi ilovalar soni 9 tadan 5 taga qisqartirildi.

- yagona soliq to'lovi hisob-kitobi yangi shaklining asosiy farqli jihati shundaki, hisob-kitob ilovalarining soni 11 tadan 7 taga qisqardi.

To'rtinchi bosqich: 2020 yil 1 yanvardan joriy etilgan Soliq kodeksiga muvofiq, 13 ta soliq va boshqa majburiy to'lovlar soni 9 taga tushirildi. Soliq hisobotlarini shakllantirishda o'sib boruvchi tartibda emas, balki har oy yakuni bo'yicha alohida hisoblash metodiga o'tildi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririda hisobvaraq-fakturalar qoida tariqasida elektron ko'rinishda rasmiylashtirilishi belgilangan. Foyda solig'ining bo'nak to'lovlari bo'yicha ma'lumotnoma bekor qilindi. Soliq nazorati shakllari 10 tadan 3 taga kamaytirildi. Bunda, soliq organlariga risk-tahlil asosida kameral soliq tekshiruvlari, sayyor soliq tekshiruvlarini va soliq auditini tayinlash huquqini beradigan soliq nazoratini amalga oshirishning yangi tartibi nazarda tutilgan. Mazkur chora-tadbirlar soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligini ijro qilishga xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va Jahon bankining har yillik "Biznesni yuritish" hisobotida O'zbekiston Respublikasi reytingini yaxshilashga imkon beradi.

3-jadval

O'zbekistonda soliqqa tortish reytingida hisobga olinadigan indikatorlarning o'zgarish dinamikasi [13]

Indikatorlar	Yillar						Farq (+,-)
	2010	2016	2017	2018	2019	2020	
Soliqqa tortish reytingi	**178**	**115**	**138**	**78**	**64**	**69**	**+109**
Soliq to'lovlari soni	106	33	46	10	10	9	**-97**
Vaqt sarfi (hisobot) soat	196	192,5	192,5	181,0	181,0	181,0	**-15**
Umumiy soliq (yuki) stavkasi %	94,9	41,1	38,1	38,3	32,1	31,6	**-63,3**

Ta'kidlash joizki, soliq tizimida amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida mamlakatimiz biznesni yuritish reytigidagi o'rni ijobiy tomonga o'zgarmoqda. Jahon bankining **"Biznesni yuritish 2019"** hisobotiga ko'ra, "Soliqqa tortish" indikatorida O'zbekiston dunyoning 190 davlat ichida 78-o'rindan 64-o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, 2020 yilda esa 64-o'rindan 69-o'ringa tushdi (3-jadval).

Soliq sohasidagi mamlakatlar reytingini aniqlashda soliq to'lovlari soni, soliqlarni to'lashga ketadigan vaqt sarfi va umumiy soliq stavkasi ko'rsatkichlari inobatga olinadi. Agar 2010 yilda soliq to'lovlari soni 106 tani, vaqt sarfi 196 soat va umumiy soliq satvkasi 94,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda soliq to'lovlari soni 10 tani va umumiy soliq yuki stavkasi **32,1** foizni tashkil etib sezilarli darajada kamayganini ko'rishimiz mumkin. 2020 yilda ham sezilarli ravishda kamayganini ko'rishimiz mumkin. Biroq soliqqa tortish indikatori ko'rsatkichi yuqorilashi o'rniga kamayishini ko'rishimiz mumkin. 2020 yildan soliq turlari 13 tadan 9 taga va soliq hisobotlarini kamaytirilgan bir paytda ushbu ko'rsatkich pasaymoqda. Ushbu holatni, indikatorlarni hisoblash metodikasi aniq emasligi va ishlab chiqilmaganligi bilan izohlashimiz mumkin [3].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqida, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi

to‘siq bo‘lgan eng dolzarb muammolarni tizimlashtirib, ularni hal etishga qaratilgan **7 ta muhim yo‘nalish** bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilab berildi [11]. Ularga quyidagilar kiradi:

- biznesni moliyalashtirish va moliya-kredit masalalari;
- soliq tizimini takomillashtirish, biznesga soliq yukini imkon qadar kamaytirishga oid masalalar;
- yer ajratish masalasi;
- biznes uchun zarur bo‘lgan infratuzilma muammolari;
- transport-logistika masalalari;
- tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni qisqartirish, sohadagi tartib-taomillarni soddalashtirish, xususiy mulk daxlsizligi borasidagi siyosatni qat’iy davom ettirish.

Xulosa va takliflar

Global inqiroz va pandemiya sharoitida mamlatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va sanoatni soliqlar vositasida rag‘batlantirish, tadbirkorlarga qo‘shimcha soliq imtiyozlari va preferensiyalarni berishni taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliqlarni to‘g‘ri hisoblash, soliq hisobotida aniq shakllantirish va o‘z vaqtida taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, taqdim etilayotgan soliq hisobotlarida soliq stavkasi va soliq bazasi noto‘g‘ri belgilash, soliq imtiyozlaridan maqsadsiz foydalanish, korxonaning rekvizitlari noto‘gri to‘ldirilishi yoki to‘lik to‘ldirilmaslik, ichki va tashqi manba ma’lumotlari aniq emasligi yoki o‘z vaqtida taqdim emaslik kabi muammolar mavjud.

Shu bilan birga, tadbirkorlar va investorlar bilan uchrashuvlar joylardagi ijrochilar sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatidan to‘liq xabardor emasligini, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi sezilarli darajada ortda qolayotganligini, ayrim litsenziya va ruxsatnomalarni rasmiylashtirishda ortiqcha byurokratik to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ko‘rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot davomida quyidagi takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorligini oshirish bo‘yicha tasdiqlangan vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va qonunchilik talablarini hisobga olgan holda xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasiga asoslangan tegishli reytinglar metodologiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash.

- “Doing Business” soliqqa tortish indikatorini hisoblashda, soliq islohotlaridagi o‘zgarishlar yil yakunida tasdiqlanishi va keyingi yildan amalda joriy etilishini hisobga olish lozim;

- xalqaro reytinglar yillik hisobotlarni o‘rganish va tahlil qilish, shuningdek har bir indikator kesimida statistik ma’lumotlarni aniqligi va shaffofligini ta’minlash;

- xalqaro reytinglarda O‘zbekiston Respublikasining rivojlanishi tendensiyalari haqidagi ma’lumotlarni, baholanayotgan yo‘nalish bo‘yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘z ichiga olgan axborotlar ma’lumot bazasini shakllantirish lozim;

- internet tarmog‘ida «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» yagona portali yaratilgan bo‘lsada, internet tarmog‘idagi **businessinfo.uz** portalida ma’lumotlar rus tilida berilgan bo‘lib, o‘zbek va ingliz tilida ma’lumotlar berilmagan hamda yetarlicha ochib berilmagan. Fikrimizcha, portalda tahliliy ma’lumotlar bilan boyitish hamda o‘zbek va ingliz tilida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

- pandemiya davrida tijorat banklari tomonidan aholiga beriladigan ipoteka kreditlari bo‘yicha foiz stavkasini bosqichma-bosqich pasaytirish amaldagi 17-19 foiz o‘rniga 14-15 foiz miqdorida belgilash

(Markaziy bank tomonidan 2021 yil sentabr oyidan qayta moliyalash stavkasi 14 foiz miqdorida saqlanib qolindi);

- karantin davrida aholiga birlamchi mahsulotlar, oziq-ovqat va dori darmon mahsulotlarini onlayn tarzda yetkazib berish xizmati uchun olinadigan qo'shimcha ustama summalarini qo'shilgan qiymat solig'i va aylanma solig'idan ozod qilish lozim;

- pandemiya davrida va tabiiy ofatlar sodir bo'lgan hududlarda yangitdan ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik faoliyatini boshlaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlarni olti oydan bir yilgacha bo'lgan muddatga daromad solig'idan ozod etish (ijtimoiy soliq mustasno) imtiyozini qo'llash.

- tabiiy ofat va texnogen hodisalar sodir bo'lgan hududlarda aholi va fermer xo'jaliklarini ikki yil muddatga mol-mulk va yer soliqlaridan ozod qilish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bildirilgan amaliy takliflar va tavsiyalar mamlakatimizda global iqtisodiy inqiroz va pandemiya sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, biznesga ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarini soliqlar orqali qo'llab-quvvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5969-sonli Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.03.2020 y., 06/20/5969/0341-son).

3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: "Adolat", 2020. – 473 b. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son)

4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 4-jild. 344-bet.

5. Abulkosimov X.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T.:"Akademiya", 2012. 26-27 b.

6. Abulkosimov X.P. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari."XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2018 yil 15 b.

7. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. -М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. -С.8.

8. Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. - Ростов н/Д: Феникс, 2007. -С.6.

9. Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, №4, 2003.

10. Rasulov T.S. Mamlakatning iktisodiy xavfsizligini va rakobatbardoshligini ta'minlashni takomillashtirish yunalishllari. "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №4, 2018 yil 12 b.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/4551

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/4596

13. http://www.doingbusiness.org/EconomyRankings - Jahon bankining Doing Business 2010-2020 yillardagi hisobotlari

14. http://www.review.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi

Urmonov J.J. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari

Maqolada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, biznesni yuritish bo'yicha xorijiy mamlakatlar reytingining qiyosiy tahlili, shuningdek tadbirkorlikni soliqlar orqali rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar yoritilgan. Xulosa qismida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, pandemiya, soliq siyosati, soliq islohoti, soliq imtiyozlari va preferensiyalar, biznesni yuritish, kichik biznes, tadbirkorlik, qulay ishbilarmonlik muhiti.

Урмонов Ж.Ж. Вопросы обеспечения экономической безопасности в стране для развития предпринимательства и формирования делового климата

Статья посвящена вопросам обеспечения экономической безопасности в стране для развития предпринимательства и формирования делового климата, приведён рейтинг стран по ведению бизнеса, а также расмотрены реформы, проводимые в налоговой политике с целью развития предпринимательства в стане. Сделаны предложения по обеспечению экономической безопасности для улучшения делового климата и развития предпринимательства.

Ключевые слова: экономическая безопасность, пандемия, налоговая политика, налоговая реформа, налоговые льготы и преференции, ведение бизнеса, малый бизнес, предпринимательство, деловой климат.

Urmonov J.J. Issues of entrepreneurship development and formation of the business climate in ensuring economic security in the country

The article is devoted to the development of entrepreneurship and the formation of the business climate in ensuring economic security, the rating of countries doing business, the analysis of doing business, as well as the reforms carried out on the development of entrepreneurship through taxes. In conclusion, proposals are made to improve the business climate and the development of entrepreneurship in ensuring economic security.

Key words: economic security, pandemic, tax policy, tax reform, tax benefits and preferences, doing business, small business, entrepreneurship, business climate.